

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI XUZURIDAGI
L.M.ISAEV NOMIDAGI MIKROBIOLOGIYA, VIRUSOLOGIYA,
YUQUMLI VA PARAZITAR KASLLIKLAR ILMIY TADQIQOT
INSTITUTI**

RASULOV SAYDULLO QURBONOVICH

MIKROELEMENTLAR VA SALOMATLIK

(Monografiya)

Samarqand – 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI XUZURIDAGI
L.M.ISAEV NOMIDAGI MIKROBIOLOGIYA, VIRUSOLOGIYA,
YUQUMLI VA PARAZITAR KASLLIKLAR ILMIY TADQIQOT
INSTITUTI**

**«TASDIQLAYMAN»
O‘zR SSV ilmiy-texnik
kengashi raisi
_____ Sh.K.Atadjanov
«_____» _____ 2025 y.**

RASULOV SAYDULLO QURBONOVICH

MIKROELEMENTLAR VA SALOMATLIK

(Monografiya)

Samarqand – 2025

Tuzuvchi:

S.Q. Rasulov - SamDTU pediatriya kafedrası dotsenti, t.f.d., Turon Fanlar Akademiyasi akademigi, Xalqaro fan va san'at akademiyasi muxbir a'zosi, Xalqaro yozuvchilar ittifoqi a'zosi, fan va ta'limda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, SamDTU xuzuridagi L.M.Isaev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy tadqiqot instituti tibbiy gelmintologiya bo'limi mudiri.

Taqrizchilar:

Bobomuratov Turdiqil Akramovich	Toshkent tibbiyot akademiyasi, bolalar kasalliklari propedevikasi kafedrası mudiri, t.f.d., professor.
Sharipov Rustam Haitovich	Samarqand Davlat tibbiyot universiteti diplomdan keyingi malaka oshirish fakulteti, bolalar kasalliklari kafedrası mudiri, t.f.d.

Mazkur monografiya hayot uchun muhim bo'lgan makro- va mikroelementlar haqida, uning bolalar salomatligini saqlashdagi tutgan o'rni, normativ ko'rsatkichlari, diagnostikasi, ona va bolalar o'rtasida mikroelementlar tanqislik holatlarining tarqalishi, bola biomuhitlaridagi miqdori, Orol bo'yi zonasi va Zarafshon vohasidagi istiqomat qiluvchi bolalarda mikroelementlar tanqislik holatlari, biogeokimyoviy hudud va oziq-ovqatlar tarkibida mavjud bo'lgan makro- va mikroelementlar miqdori, mikronutrientlar tanqisligi profilaktikasiga doir yangi zamonaviy ma'lumotlar berilgan.

Monografiya mikroelementlar hamda mikroelementozlar muammolari bilan shug'ullanuvchi barcha mutaxassislar: ilmiy va amaliyotdagi tibbiyot xodimlari, kimyogarlar, gigiyenistlar, nutritsiologlar hamda tibbiyot instituti talabalari, ordinatorlar va magistrlar uchun mo'ljallangan.

In English

Developer:

Rasulov S.Q. Associate professor of pediatrics department of SamSSU, D.s.M., Academician of the Turan Academy of Sciences, Corresponding member of the International Academy of Sciences and Arts, International member of the Union of Writers, meritorious scientist in science and education character, microbiology named after L.M. Isaev in the presence of SamSMU, scientific research institute of virology, infectious and parasitic diseases head of the medical helminthology department.

Reviewers:

Bobomuratov Turdiqil Akramovich - Tashkent Medical Academy, head of the department of propaedeutics of children's diseases, D.s.M., professor.

Sharipov Rustam Haitovich - head of the Department of Children's Diseases, Department of Post-Graduation, Samarkand State Medical University, D.s.M.

In this monograph, macro- and micronutrients important for life, their role in children's health care, regulatory indicators, diagnostics, the prevalence of micronutrient deficiencies among mothers and children, their amount in children's bioenvironments, the area along the island and micronutrient deficiencies in children living in the Zarafshan oasis, biogeochemical region and the amount of macro- and micronutrients in food, new modern information on the prevention of micronutrient deficiency.

The monograph is intended for all specialists dealing with the problems of micronutrients and micronutrients: scientific and practicing medical workers, chemists, hygienists, nutritionists, as well as students, rectors and masters of the medical institute.

Monografiya Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan. 2024 yil "25" dekabrda 5-sonli bayonnoma

MUNDARIJA

So'zboshi.....	4
1-BOB. MIKROELEMENTLARNING ROLI VA AHAMIYATI.	
Mikroelementlarning inson salomatligidagi tutgan o'ri.....	7
Mikronutrient yetishmovchiligining ona va bola sog'lig'iga ta'siri..	10
Mikronutriyentlar yetishmovchiligi profilaktikasi.....	13
Mevalar va o'simliklar tarkibidagi makro- va mikroelementlarning organizm uchun foydaliligi.....	19
Makroelementlar.....	20
Mikroelementlar.....	26
Bolalarda mikroelementozlarning klinik tasmifi.....	36
II-BOB. MAXSUS QISM. ONA VA BOLA BIOMUHITLAGIDA MIKROELEMENTLAR MIQDORI.....	39
Ko'krak suti tarkibidagi makro- va mikroelementlarni o'rganish.....	39
Emizuvchi ayol suti tarkibidagi mikroelementning ona salomatligiga uzviy bog'liqligi.....	42
Onalar sochidagi makro- va mikroelementlar miqdorini o'rganish.....	53
Go'daklar sochida mikroelementlar miqdori.....	56
III-BOB. OZIQQOVQAT MAHSULOTLARINING MIKROELEMENT TARKIBI.....	60
Rafinirlangan mahsulotlar va ularning inson salomatligidagi ahamiyati.....	60
“Ona-bola” tizimida mikroontrientlar tanqisligini oldini olishda donakli- mevali mahsulotlarining qo'llanilishi.....	64
Uzum shinnisini tibbiyotda qo'llash istiqbollari.....	72
Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida temir miqdori.....	79
Mikronutrientlar yetishmovchiigi profilaktikasida milliy mahsulot Uzum g'o'robida mikronutrientlar tarkibini o'rganish.....	84
Tabiiy milliy taom sumalakning mikroelement tarkibi va ahamiyati...	93
Foydalanilgan adabiyotlar	104

SO'ZBOSHI

So'nggi yillarda xalqimizning turmush darajasi va tibbiy madaniyati, salomatlik holati shahar va qishloqlarda sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgarmoqda. Bu o'z navbatida har bir kishini o'z salomatligini asrashga undaydi. Darhaqiqat, kishi jismonan va ruhan sog'lom bo'lgandagina, o'zi istagan maqsadiga erishishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi va unga foyda keltirishi mumkin.

Butun Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga asosan aholi o'rtasida turli kasalliklar sabablari 100 foiz deb olinsa, 49-53 foizi sog'lom turmush tarziga amal qilmaslikdan, 21-23 foiza irsiy omillarga, 19-21 foizi esa, ekologik omillarning odam organizmiga salbiy ta'siridan va qolgan 8-10 foizi tibbiyot xodimlari va sog'liqni saqlash tizimiga bog'liq holda kelib chiqadi. Demak, kasalliklar sababi turmush tarziga ko'p jihatdan bog'liqdir. Avloddagi nasliy belgilar yoinki irsiy kasalliklar har besh oila a'zosidan biriga berilishi muqarrar.

Urbanizatsiyalanish davrida sanoatning rivojlanishi, kimyoviy vositalarning qishloq xo'jaligida, maishiy xizmatda, tibbiyotda va boshqa sohalarda qo'llanilishi oqibatida, shu qatorda texnik halokatlar ekologik muhitni xavfli o'zgarishlariga sabab bo'lmoqda, bu o'z navbatida inson salomatligiga, ayniqsa bolalar salomatligiga salbiy ta'sir ko'satib turli xastaliklarga, immun tanqisligiga, o'sish va rivojlanishdan ortda qolish va hayot sifatiga o'z ta'sirini o'kazmoqda. Noqulay ekologik vaziyatning salbiy oqibatlari o'z navbatida oziq-ovqat mahsulotlari kimyoviy tarkibining o'garishiga olib kelmoqda, bu bilan aholi salomatligiga putur yetkazayotganligi ko'pchilikka ma'lum. Hozirgi vaqtda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash - zamon talabi, uni amalga oshirish jamiyat va har bir kishiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Ma'lumki, iste'mol uchun sotuvga chiqariladigan meva va sabzavotlar hamda boshqa ozuqaviy mahsulotlar turli kimyoviy moddalardan xoli ekanligi kafolatlanmagan. Kartoshka, sabzi, piyoz, karam, lavlagi, sholg'om va boshqalarni yetishtirishda xosilni ko'paytirish maqsadida sun'iy o'g'it va zararkunandalarga qarshi kimyoviy zaharli moddalardan foydalanish ken gayib bormoqda. Buni nazorat qilish niyahoyatda mushkul. Lavlagidan shakar olinishini bilamiz va har kuni iste'mol qilamiz. Lekin ko'pchilik shakar iste'mol qilish tufayli sun'iy ovqatlanayotganligi va bu narsa inson salomatligiga qanchalik salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emas. Shakar qamish va shakar lavlagi ayniqsa uglevodlarga,

vitaminlarga, mikroelementlarga va kamroq oqsillarga boy, tabiiy to'yimli ozuqa, undan shakar tayorlash jarayonida tarkibida bo'lgan barcha mikroelementlar, vitamin hamda turli xil biologik faol moddalar kimyoviy ishlov berish orqali olib tashlanadi yoki unga qo'shiladi va disaxarid – saxaroza, ya'ni shakar tayyorlanadi. Lavlagidan tabiiy usulda olinadigan qiyom, shinni va turli shirinliklar tayyorlab iste'mol qilish inson salomatligi uchun nihoyatda foydali ekanligi barchaga ma'lum bo'lishiga qaramasdan sun'iy rafinirlangan shakarni afzal ko'rishlari sir emas. Ta'kidlash joizki, rafinirlangan shakar o'rnida ekologik toza va organizm uchun barcha kerakli vitamin, makronutrient va mikronutrientlarga boy bo'lgan tabiiy uzum yoki boshqa meva va poliz mahsulotlarini shinnisini keng miqyosda iste'mol qilishni aholi o'rtasida targ'ib qilish va shu bilan birga turli meva va sabzavotlardan shinni tayyorlashni sanoat miqyosida yo'lga qo'yish zamon talablarida biri bolib qolmoqda.

Sog'lom turmush tarzini aholi o'rtasida targ'ib ailishda shuni ham e'tiborga olish lozimki, tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari ichida kimyoviy moddalar va sun'iy mineral o'g'itlardan xoli bo'lgan ko'plab mahsulotlar ham juda ko'p, bular mevalar va tabiiy o'sadigan ziravor o'tlardir. Ammo lekin hozirgi ekologik qalyis vaziyatda ularni tabiiy toza mahsulot deb atash ham haqiqatga yaqin emas, zero qishloq xo'jalik mahsulotlariga kimyoviy ishlov berilgan hududlar atrofida havo tarkibini ekologik jihatdan toza deb bo'lmaydi. Transgressiv yo'l bilan qo'shni xududlarga sanoat chiqindilarining havo va suv orqali orqali zaharli kimyoviy elementlarni bir mamlakatdan havo orqali boshqa hududlarga ko'chib o'tishi oqibatida o'simlik duyosi ifloslanishi bilan birga insonlar ham zarar topishi tabiiy, bunda hattoki tog' yon bag'irlarida o'sadigan mevali va ziravor o'simliklar ham kam bo'lsada zararlanadi, ekologik vaziyatni bunday holatda o'zgarishini barchamiz unutmasligimiz lozim. Gap aholi salomatligi, ayniqsa bolalar salomatligi va kelajagi haqida borar ekan, ekologik muammolarning oziq-ovqat xavfsizligiga katta ta'sir ko'satishi va uning oqibati nimalarga olib kelishini qanchalik muhimligini va mohiyatini barchamiz to'g'ri idrok eta olishimiz juda muhimdir

Shunisi quvonarliki, hozirgi vaqtda bog'dorchilik va uzumchilik tobora rivojlanmoqda, davlatning eksport salohiyati tobora oshib borishi iqtisodiyotni mustahkamlamoqda va shu orqali aholi turmus sharoiti yaxshilanmoqda. Lekin uzum mahsulotlarining shifiligi haqidagi hamda turli kasalliklarni kompleks davbolashda uzum mahsulotlaridan to'g'ri foydalanish borasida mutaxassislar tomonidan eterlicha ahamiyat

qaratilmayotganligi, bu borada ularning bilim va ko'nikmalari yetarli emasligi haqiqatdir.

Ushbu monografiyada ekologik jihatdan ancha toza, to'yimli va shifoli bo'lgan uzum mahsulotlarining inson salomatligida ahamiyatini ochib berish uchun ilmiy ma'lumotlar to'plash bilan birga shaxsiy ilmiy tadqiqotlar olib borish, uzum mahsulotlarini o'rganilmagan sohalarini tadqiq qilish, olingan natijalar asosida tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Uzum va uzum mahsulotlari bilan davolash – “ampelo”- uzum, “terapiya” – davolash ma'nosini beradi, hozirgi vaqtga kelib bu “ampeloterapiya” nomi bilan yuritiladi. U parhezli ovqat va fitoterapiya usullaridan biri sanaladi. Modda almashinish buzilishi, o'pka xastaliklari, darmonsizlik, kamqomlik va boshqa ko'pgina xastaliklar uzum yordamida davolanib kelinadi.

Ushbu kitobda mikroelementlar, mikroelementozlar, ularning ona va bola organizmidagi roli va fiziologik normativlari yoritilgan, onalar va bolalar biomuhitlaridagi makro- va mikroelementlar miqdori tadqiq qilingan, shu qatorda uzum mahsulotlari va turli xil milliy oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklarning mikronutrient tarkibi hamda ichimliklarning shifoligi haqida so'z yuritiladi.

Ushbu ma'lumotlarni keltirishdan asosiy maqsadimiz tibbiyot xodimlari va barcha o'quvchilarga mikroelementlarning qanchalik inson salomatligini saqlashda va xastaliklardan xoli etishda bebaho ne'mat ekanligini yana bir bor eslatish va targ'ib etishdir.

Mazkur monografiya bo'yicha kitobxonlarning fikr va mulohazalarini muallif mamnuniyat bilan qabul qiladi.

1-BOB. MIKROELEMENTLARNING ROLI VA AHAMIYATI

Mikroelementlarning inson salomatligidagi tutgan o‘rni

XX asr inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan turli sohalarda buyuk kashfiyotlar va texnologiyalar gurkirab rivojlanishi davri bo‘ldi. Tibbiyot sohasida katta siljishlar bo‘lishiga qaramasdan, odamlar o‘rtasida kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlari ilgarigicha darajasi saqlanib qolmoqda. Olingan ma'lumotlarga ko‘ra, har kuni 500 dan ortiq yangi turdagi dorilar kashf qilinayapti, minglab yangi turdagi oziq-ovqat mahsulotlari yaratilmoqda. Shunga qaramasdan yildan-yilga turli kasalliklarning kamayishi sezilmayotganligi, hattoki ilgari ma'lum bo‘lmagan kasalliklar yangidan paydo bo‘layotgani, qadimiy kasalliklarning qayta uchrayotganligiga guvoh bo‘lib turibmiz.

Salomatlikni qanday qilib saqlab qolish, umrni qanday qilib uzaytirish mumkin degan tushunchani to‘g‘ri anglab yetmaslik oqibatida inson o‘z sog‘ligining yomonligi va qisqa umri bilan javob berishga majbur bo‘layotir.

Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, dunyoning 10 foiz aholisi tabiiy qarish natijasida, 20 foizi bahtsiz hodisalar va urushlar natijasida, 70 foizi turli kasalliklarga chalinishi tufayli olamdan o‘tadi.

Tabiiy qarish va baxtsiz hodisalar inson ixtiyoridan tashqari ro‘y beradi, lekin qolgan umr barqarorligiga biz o‘z ta’sirimizni o‘tkazishimiz mumkin.

Aniqroq aytganda, inson salomatligi 10 foiz holatlardagina tibbiyotga bog‘liq, ya’ni tibbiyotning qay darajada takomillashishi va yordam ko‘rsatish imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

Yog'lar, tuz va shirinliklarni me'yoridan ko'p miqdorda iste'mol qilish yurak-qon tomir, saraton, semirish, allergik va boshqa kasalliklar sababchisi bo'layotgani sir emas.

Inson salomatligi uchun eng zarur mahsulot bo'lgan o'simliklar tarkibidagi shifobaxsh moddalarga mikroelementlarning tabiiy majmui kiradi. Mikroelementlar barcha tirik organizm hayot kechirishi uchun ahamiyat kasb etib, a'zo va to'qimalarda ularning soni 70 dan ortib ketadi. Tanadagi modda almashinuv jarayonida qatnashadigan mikroelementlarning a'zodagi miqdori ular bajaradigan roli bilan belgilanadi. Tanaga makro- va mikroelementlarning kam yoki ko'p miqdorda tushishi turli xil patologik jarayonlarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'simliklar tarkibida mavjud bo'lgan oqsil, yog', uglevodlar, vitaminlar bilan bir qatorda mikroelementlar, tabiiy holda iste'mol qilinganda, ya'ni yangi pishib yetilgan vaqtda yoki xomligida o'zinig biologik xususiyatlarini saqlab qoladi. O'simlik mahsulotlarini uzoq muddat noqulay sharoitlarda (o'ta issiq, sovuq, quruq, nam) saqlash ham ularning biologik tarkibini o'zgartirib yuborishi mumkin. Shu sababli, issiq kunlarda ularni tabiiy sharoitda saqlash maqsadga muvofiq. O'simliklarning to'la pishib yetilishiga e'tibor berish lozim, masalan uzum xomligida ya'ni pishmasdan oldin iste'mol qilinganda uning tarkibida shakar miqdori kam, shu bilan birga nordon(kislotali) radikallar ko'p bo'lishi, noyabr va dekabr oylarida uzilganda esa shakar, vitamin va minerallar miqdori kamayishi kuzatilgan.

Tez buziladigan meva, sabzavot va poliz maxsulotlari nisbatan tarkibi buzilmasdan saqlanadiganlari dukkaklilar bo'lib, ularni uzoq muddat saqlash imkoniyati mavjud. Mevalarni quritilgan holda saqlash maqsadga muvofiq. Tabiiy usulda quritilgan mevalarning tarkibi o'zgarmasdan qoladi va ularda mavjud mikroelementlarning salmog'i kamaymasdan turadi. Shu jihatdan quyoshda yoki soyada quritilgan mevalar qatorida uzumdan tayyorlangan mayiz ham tarkibida uglevod, mikroelement va vitaminlarga juda boyligi bilan shifoli xususiyatlarga ega.

Ayrim oziq mahsulotlarining tashqi muhit omillari ta'sirida sifati va tarkibi buzilishi mumkin, bu esa o'z navbatida inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatib turli xastaliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ishlab chiqarish korxonalari hamda avtotransportlarning chiqindi gazlari va zaxarli moddalarining tashqi muhit orqali oziq-ovqat mahsulotlariga zarar qilishi sir emas. Katta yo'llar atrofida joylashgan

oshxonalarda ovqatlanish yo‘l chetidagi savdo do‘konlaridan kundalik iste‘mol mahsulotlarini xarid qilish inson salomatligiga zararli ta’sir qilmasdan qolmaydi. Masalan, cerqatnov yo‘l atrofida sotiladigan go’shtga mashinalardan chiqqan gaz va chang o‘tirishi mumkin. Bu o‘rinda shuni aytish lozimki, avtomobillardan chiqadigan tutun tarkibida insonga katta zararli ta’sir ko‘rsatadigan qo‘rg‘oshin kimyoviy elementi (tetraetilenqo‘rg‘oshin) mavjud bo‘lib, u yo‘l atrofida sotilayotgan barcha ozuqa maxsulotlariga singib ketadi. Bunday gaz-tutunlar 50 metrlik masofagacha tarqalish xususiyatlariga ega. Gigiyenik jihatdan yo‘l atrofida oziq-ovqat mahsulotlarini sotilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Qo‘rg‘oshindan inson o‘zi bilmagan holda zaharlanishi mumkin. Buning natijasida (qo‘rg‘oshinli) kamqonlik kasalligi rivojlanadi va uni davolash juda qiyin kechadi. O‘simlik mahsulotlarini yetishtirishda qo‘llaniladigan kimyoviy o‘g‘itlar, gerbitsid, insektitsid va boshqa kimyoviy moddalar meva-sabzavot, ko‘katlar tarkibida uzoq muddat saqlanib to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki hayvon maxsulotlari orqali inson tanasiga tushadi.

Aholining oziq-ovqatga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida so‘nggi yillarda hayvonlarning sun’iy oziq moddalar, antibiotik va gormonlar bilan oziqlantirilishi bir qator tibbiy gigiyenik muammolarni keltirib chiqarmoqda, bular ham o‘z o‘rnida aholi salomatligiga putur yetkazayotganligi tibbiy xodimlarga yaxshi ma’lum.

Ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi manbalarda tabiiy oзуqalarga sintetik vitaminlar, konservantlar, rang va xushbo‘y hid beruvchi mahsulotlar qo‘shilishi kishilarning, ayniqsa onalar va bolalar salomatligiga putur yetkazishi mumkin.

Tuproq va suv tarkibida, o‘simlik, inson uchun eng zarur bo‘lgan mineral moddalar - natriy, kaliy, yod, selen, temir, mis, rux, xrom va boshqa mineral moddalar kam bo‘lgan bir vaqtda yuqori hosil olish maqsadida har yili ikki-uch marta yerga qayta ishlov berish, ularni belgilangan miqdoridan ortiqcha ishlatish bu muhim mikroelementlarning tuproqda yanada kamayib ketishiga olib kelmoqda.

Tuproq, suv va havoda zarur bo‘lgan minerallar yetishmasa, tabiiyki, ular o‘simlik mahsulotlarida va ularni iste‘mol qiladigan hayvonlarda ham ular kam uchraydi. Yerning hosildorligini oshirish, har xil hasharotlar va kasalliklarga qarshi ishlatiladigan kimyoviy moddalar vositasida hosildorlik kuchayadi, ularning saqlanish muddati uzayadi, meva-sabzavot, donlarning tashqi ko‘rinishi go‘yoki yaxshilanadi. Lekin, eng zarur bo‘lgan ozuqa qiymati esa kamayib boraveradi.

Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kimyoviy moddalarni asta-sekin ta'sir qiluvchi, yerga ko'milgan "mina" deb hisoblash mumkin. Ular o'n yillab takror va takror ishlatilishi natijasida tuproqda to'planib boradi va hattoki ular o'simliklarga, suv manbalariga, so'ngra hayvonlar to'qimalariga joylashib tirik organizm salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ular birin-ketin inson a'zolari zamirida rivojlanib boruvchi buzilishlarni (xastaliklarni) keltirib chiqaradi. Buning natijasida esa turli kasalliklar rivojlanadi. Ba'zida barvaqt qarish va bevaqt o'limga sabab bo'lishi mumkin.

Oziqaviy mahsulotlar uzoq vaqt saqlanishi natijasida ham ularning tarkibidagi vitaminlar, minerallar va ozuqa moddalar o'zining foydalilik qiymatini sekin-asta yo'qotib boradi. Masalan, kartoshka saqlanish muddati o'tgach, undagi zurur moddalarning 8 foizdan ko'prog'i saqlanib qolishi aniqlangan.

Kimyoviy ozuqa qo'shimchalarga kiruvchi konservantlar, sun'iy rang va xushbo'y hid beruvchi moddalar asosan ozuqa mazasini oshirish, sifatini kuchaytirish, buzilishini sekinlashtirish, saqlanish muddatini oshirish maqsadida ishlatiladi. Ushbu moddalarning me'yordan ko'p miqdorda qo'shilishi kantserogen ta'sirga ega bo'lib, ko'pincha saraton kasalligini chaqiruvchi hisoblanadi. Bularning barchasi - biz bilib-bilmasdan iste'mol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining qanchalik xavfli ekanligidan dalolat beradi.

So'nggi vaqtlarda ayrim mamlakatlarda olib borilayotgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, ozuqa mahsulotlarining ko'pchiligida inson hayoti uchun zarur mikronutriyentlar tanqisligi bilan birga toksik ta'sirga ega bo'lgan elementlarning miqdori me'yordan tobora oshib borishi kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jalik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda bir qator qiyinchiliklar tug'dirishi tabiiy. Ayniqsa, kunlik iste'mol qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlaridan poliz mahsulotlari, piyoz, pomidor, kartoshka va boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash mushkullashib bormoqda. Chunki bunday mahsulotlar to'g'ridan-to'g'ri bozordan xarid qilinib yoki tomorqada yetishtirilib iste'mol qilinmoqdaki, ularning xavfsizligini ta'minlashni nazorat qilish imkoniyati yo'q. Shunga qaramasdan kimyoviy moddalardan holi bo'lgan mahsulotlar ham borki, masalan o'rik, tut, yong'oq, bodom, pista, nok, do'lana, anor, shaftoli, olcha va gilos singarilar inson salomatligi uchun juda foydali. Bunday mahsulotlarga kimyoviy moddalar ishlatilmasa-da ularni butunlay ekologik toza mahsulotlar deyish qiyin, chunki shahar atrofida va sanoat

markazlariga yaqin bo'lgan joylarda o'stiriladigan mevali daraxtlar va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari havoning ifloslanishi natijasida yaroqsiz holga kelib qolishi mumkin. Shu jihatdan oziq-ovqat moddalarining xavfsizligini ta'minlash tobora dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Mikronutrient yetishmovchiligining ona va bola sog'lig'iga ta'siri

Mikronutrientlar - inson organizmining normal rivojlanishi va faoliyati uchun zarur moddalar bo'lib, ular oziq-ovqat tarkibiga kiruvchi vitaminlar, makroelementlar va mikroelementlarni o'z ichiga oladi. Odam organizmiga mikroelementlarning yetarli darajada kiritilmasligi (ularning yetishmasligi yoki ortiqchaligi) normal regulatsiya doirasidagi fiziologik o'zgarishlarga yoki metabolizmning sezilarli buzilishlariga, o'ziga xos kasalliklar paydo bo'lishiga olib keladi [Arziqulov A.SH.,2022; Смирнова Т.Л., 2018].

Ekzogen mikroelement yetishmovchiligi va atrof-muhitning toksik metallar bilan ifloslanishi, avvalambor, homilaning sog'lig'iga ta'sir qiladi, chunki ma'lum zararli elementlarning intensiv to'planishi platsentada ham sodir bo'ladi, bu tug'ma nuqsonlarning rivojlanishiga, immunitetning pasayishiga, ko'plab kasalliklarning rivojlanishiga, aqliy va jismoniy rivojlanishning sustligiga, ko'pincha surunkali patologik kasalliklarga olib keladi [Gromova O.A., 2019; Smith ER, et al.,2017].

Inson tanasida hayot uchun muhim (essentsial) elementlar yetishmovchiligining ta'siri quyidagicha: Rux - Immunitet; oshqozon osti bezi va prostata bezlarining funktsional holati; jinsiy gormonlar; Mis - Qon tomirlarining elastikligi; asab tizimi, qalqonsimon bez, bo'g'imlar; yurak faoliyati, ritmi, funktsional holati; Marganes - Asab tizimining funktsional holati, oshqozon osti bezi; terining holati, suyak to'qimasi; sezuvchanlik; Magniy - Yurak va qon tomirlari funktsional holati; qon plazmasi; buyraklar faoliyati, o't yo'llari, asab tizimi; immunitet; Xrom - stressga qarshi himoya qilish; yog'ning ortiqcha bo'lishi, qonda glyukoza miqdorini tartibga solish; Selen-Immunitet; antikanserogen himoya;-

psixo-emotsional holat; jismoniy faoliyatda ishtirok etadi; Kumush - Antibakterial himoya qilish; immunitetni oshiradi.

Yosh bolalarni ratsional oziqlantirish uyg'un o'sishi va rivojlanishni ta'minlaydi, kasallanishni pasaytiradi va atrof-muhitning salbiy omillariga organizmning qarshiligini oshiradi [Dubovaya A.V., 2018; Popova V.A., 2018].

Shuni ta'kidlash kerakki, yaxshi ovqatlanish nafaqat oziq-ovqat miqdori (oqsillar, yog'lar va uglevodlarning muvozanati) va uning energiya komponenti bilan, balki mikronutrient miqdori bilan ham belgilanadi. Tanadagi ozuqa moddalarining yetishmasligi dunyoning ko'plab mamlakatlarida bolalar va kattalar uchun jiddiy muammo hisoblanadi [Suprun S.V., 2019, Guo Y., et al. 2019].

Mikroelementlar inson tanasiga oziq-ovqat, suv, havo bilan kiradi, ammo yosh bolalar uchun asosiy yo'l oziq-ovqat hisoblanadi. Ko'krak suti bilan oziqlanadigan hayotning birinchi yilidagi bolalar ko'krak suti bilan mikroelementlarni qabul qiladilar. Ko'krak sutining mikroelement miqdori beqaror va ko'plab omillarga bog'liq: emizuvchi ayolning ovqatlanishi, uning sog'lig'i holati, zararli odatlar mavjudligi, hududning geografik omillari, ichimlik suvi manbai, laktatsiya muddati va ko'krak sutidagi mikroelementlarni bola tomonidan iste'mol qilishning biologik xususiyatlariga bog'liq [Буцкая Е.И. и др., 2020; Li Z., 2017].

Organizmni zarur mikroelementlar bilan ta'minlash uchun bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan bolaning kunlik ovqatlanishi barcha asosiy oziq-ovqat guruhlarini o'z ichiga olishi kerak [Евпулева Ю.В., 2016 Жиёмуратова Г.К., 2019, Nazeri P, et al., 2018].

Bolalar ovqat ratsionida mikronutrientlar yetishmasligi natijasida bir qator xastaliklarni keltirib chiqaradi: oziq-ovqatga allergiya, raxit, semirish, yod tanqisligi holatlari va boshqalar, bu esa bolaning sog'lig'i va hayot sifatini sezilarli darajada yanada kamaytirishi mumkin [Шарипов Р.Х., и др, 2016; Хорошилов И.Е., 2019].

Keyingi yillarda inson sochining mikroelementlar holatini neytron aktivatsion tahlil qilish usuli yordamida olib borilayotgan tadqiqotlar tobora ko'proq qiziqish uyg'otmoqda, ayniqsa sochlardagi mikroelementlarni taxlil qilish umuman

organizmning mikroelementlar holatini aks ettiradi va soch namunalari metabolizmning ajralmas ko'rsatkichidir [Бобомуратов Т.А. и др., 2022, Гизингер О. А., и др., 2019].

Shunday qilib, mikroelementlarning nomutanosibligi sohadagi ilmiy izlanishlar turli xil patologik holatlarning giper- yoki gipomikroelementozida rivojlanishning haqiqiy mexanizmlarini ochib beradi, ba'zida organizmning bir nechta (ovqat hazm qilish, asab, teri, gemopoetik va boshq.) tizimlarini qamrab oladi va tegishli simptomokomplekslarini hosil qiladi. Shu munosabat bilan, yuqoridagi mikroelementlarning yetishmovchiligini o'rganish ushbu holatda paydo bo'ladigan patologik holatlarning sabablarini aniqlashga, ularning paydo bo'lish chastotasini aniqlashtirish uchun real imkoniyatlar yaratishga, diagnostika usullarini, davolash usullarini va samarali profilaktika tamoyillarini ishlab chiqishga imkon beradi. Bugungi kunga kelib odamlarda makro- va mikroelementozni tekshirishda butun qondagi bioelementlarni, uning zardobi va eritrotsitlaridagi, siydik, soch, tirnoq, so'lak, tishda va boshqa organlarda o'rganilmoqda [Бобомурадов Н.Л., и др., 2018, Persson LA., 2017].

Mikronutriyentlar yetishmovchiligi profilaktikasi

Insonning oqilona ovqatlanishida nafaqat ovqatning energetik qiymati, oqsil, uglevod va yog'larga boyligi, balki mikroelementlar va vitaminlarning ta'minlanishi ham muhim o'rin tutadi. Tibbiyotda ilmiy mutaxassislar tomonidan vitaminlarning organizm uchun zaruriy jihatlari va ularning tanqisligi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar yaxshi o'rganilgan. Ammo mikroelementlar yetishmovchiligiga deyarli e'tibor qaratilmagan. So'nggi yillarda rivojlangan mamalakatlar tajribalaridan kelib chiqib, bizning respublikamizda ham mikroelementlar yetishmasligi va nomutanosibligi oqibatida paydo bo'layotgan kasalliklar, ya'ni mikroelementozlar keng miqyosda o'rganilmoqda va ularning natijalari ijro uchun amaliy tibbiyotga taqdim etib borilmoqda.

Mikroelementozlar - essentsial mikroelementlar almashinuvining patologiyasi bo'lib, Markaziy Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda ham ko'p uchraydi. Mikroelementozlar ko'pincha temir tanqisligi holatida

fertil yoshidagi ayollar, xomilador va emizikli onalar, bolalar, umuman turli aholi qatlamlarida keng tarqalgan. Bu ko'rsatkich O'zbekistonning ayrim biogeoximik hududlarida 70-80% ni tashkil etadi. Ovqat tarkibida mikroelementlarning surunkali yetishmovchiligi birinchi navbatda bolalarga ta'sir ko'rsatib ularda o'ziga xos kasalliklarni chaqiradi. Mikroelementozlarning ikki turi: giper- va gipomikroelementozlar (organizmda mikroelementlar miqdorining oshib ketishi va kamayishi) mavjud. Ularning ikkinchisi klinitsistlar tomonidan kam o'rganilgan.

Mamlakatimizda mikroelementozlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib borayotganligi bois ilmiy tadqiqot ishlari keng miqyosda o'tkazilayapti. Organizmning hayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan essentsial mikroelementlar tanqisligi yer yuzi aholisi o'rtasida keng tarqalgan. A.V.Skal'nyy (2019) ma'lumotlariga qaraganda, Rossiyada bolalar va o'smirlar o'rtasida mikroelementozlar 40-50% ni tashkil etsa, respublikamiz mutaxassislarining ma'lumotlarga ko'ra Zarafshon vohasining maktab bolalari o'rtasida bu ko'rsatkich 30% dan 80% gacha yetib boradi. Ayniqsa, bolalar o'rtasida temir, yod, rux, mis, kobalt, kaltsiy va boshqa makro- va mikroelementlar tanqisligi ko'p uchramoqda. Kamqonlik tufayli bola organizmining qarshi va adaptiv (moslashuvchanlik) xususiyatlarining pasayishi, bo'y o'sishi va rivojlanish ko'rsatkichlarining pastligi kabi o'zgarishlar mikroelementlar tanqisligi alomatlari hisoblanadi. Buning sababi bir tomondan turli kasalliklar oqibatida mikroelementlarning yo'qotilishi, oshqozon-ichak orqali ularning kam so'rilishi, bolalar o'sish davrida mikroelementlarga bo'lgan talabning oshishi bo'lsa, boshqa tomondan organizmga tegishli oziq-ovqat mahsulotlari kam iste'mol qilinishi, biogeoximik hududlarda esa mikroelementlarning oz miqdorda bo'lishidir. Shu nuqtai nazardan bunday tanqislikning oldini olishda milliy taomlar tarkibida bo'lgan mikroelementlar miqdorini aniqlash muhim profilaktik ahamiyat kasb etadi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda hozirgi vaqtda odamlar o'rtasida uchrayotgan kasalliklarning 80 foizdan ortig'i mikronutriyentlar yetishmovchiligi tufayli kelib chiqmoqda. Mikronutriyentlar tanqisligi tufayli ayniqsa onalar va bolalar o'rtasida kasallanish va o'lim ko'rsatkichlari ortishi mumkin. Shu bilan bir qatorda mikronutriyentlar tanqisligi o'smir bolalar aqliy va jismoniy rivojlanishi, ayollar va axoli boshqa qatlamlari o'rtasida ish kobiliyatining pasayishiga sabab bo'ladi.

Ovkat tarkibida vitaminlar va mikroelementlar yetishmovchiligi onalar va bolalar salomatligiga katta xavf soladi.

Xomilador ayollarda mikronutriyentlar yetishmasligi xomila va chaqalok uchun «ikki tomonlama xavf» tugʻdiradi. Tugʻruk yoshidagi ayollardagi bunday tanqislik xolatlar xomila va tugʻruq xastaliklari rivojlanishiga olib keladi. Ona qornida bolaga mikronutriyentlarning kam singishi va bolani emizish davrida onada mavjud mikronutriyentlar yetishmovchiligi bolaning rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi va bolada ham mikroelementlar tankisligini keltirib chiqaradi. Natijada bolaning turli xil kasalliklarga moyilligi va beriluvchanligi ortadi, bola oʻsish va rivojlanishdan orqada qoladi.

Kuzatishlar shuni isbotlaydiki, emizish davrida onaning mikronutriyentlarga boʻlgan ehtiyojini kondirish va koʻkrak suti bilan bolani uzoq muddat oziklantirishni davom ettirish oʻrtasida oʻzaro bogʻliqlik mavjud. Mikroelementlar tanqisligi iktisodiy jihatdan taʼminlangan katta shaharlarda yashovchi bolalarda ham koʻp uchraydi. Bu oʻrinda shuni taʼkidlash lozimki, qishloqda yashovchi bolalarda mikronutriyentlar tankisligi nisbatan yuqori boʻladi. Mikroelementlar tanqisligining bolalar salomatligiga salbiy taʼsiri hozirda kam oʻrganilgan, shu bois bu hodisa, xududiy proflaktik dastur ishlab chiqarishni qiyinlashtirmoqda.

Xalqaro miqyosda olib borilgan tekshiruvlar natijasida mikronutriyentlar tankisligining oldini olish borasida katta yutuqlarga erishildi. Oziq-ovqatlarni fortifikatsiya qilish, alohida mikronutriyentlar soplemetatsiyasini oʻtkazish shular jumlasiga kiradi.

Jahon Sogʻliqni Saqlash Tashkiloti (JSST) va YuNISEF tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarda onalar va bolalar oʻrtasida mikronutriyentlar tanqisligi 30% dan ortiq tarqalgan davlatlarda mikronutriyentlar tanqisligining oldini olish uchun tezkor tadbirlar oʻtkazish tavsiya etiladi. Soʻnggi yillarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarimiz shuni isbotlamoqdaki, Zarafshon vohasining maktab yoshidagi bolalar oʻrtasida hayot uchun eng zarur boʻlgan mikroelementlar (temir, rux, mis, kobalʼt, marganets) tanqisligi 40% dan 70% gacha uchrashi qayd etildi. Oʻrganilgan 48 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida mis, rux, temir va boshqa turdagi mikroelementlar miqdori yetishmasligi aniqlandi. Chunki Zarafshon vohasidagi suv, tuproq tarkibida bu mikroelementlarning barchasi kam ekanligi maʼlum boʻldi.

Bugungi kunda mikronutriyentlar tanqisligi profilaktikasida arzon va xavfsiz usullardan biri - oziq-ovqat mahsulotlarini mikronutriyentlar bilan boyitishdir. Buning uchun aholi oʻrtasida eng koʻp isteʼmol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari tanlanib mikronutriyentlar bilan

boyitiladi. Jahonning 50 dan ortiq mamlakatlarida va shu jumladan, O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini fortifikatsiya qilish to'g'risida qonunlar qabul qilinganki, endilikda mikronutrientlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishga erishilmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlaridan biri hisoblangan unni fortifikatsiya qilish, ya'ni vitamin va mikroelementlar bilan boyitish Markaziy va janubiy Amerika, Kanada mamlakatlarida ko'p yillar mobaynida qo'llanib kelingan. Keyingi yillarda MDH mamlakatlarida ham unni fortifikatsiya qilish amalga oshirilmoqda. Respublikamizda, shuningdek Moldaviya, Kozog'iston, Gruziya, Ozarboyjon, Armanistonda ham ushbu dastur borasida profilaktik tadbirlar qo'llanilmoqda. Ruminiya, Bolgariya, Turkiya va boshqa davlatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini mikronutrientlar bilan boyitish mikroelementlar tanqisligining oldini olishda katta samara berayotir. Shuning uchun bu joylarda ona va bola salomatligi ko'rsatkichlari yaxshilanganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

O'zbekistonda ham mikronutrient yetishmovchiligi profilaktikasiga katta ahamiyat berilayapti. Onalar va bolalar o'rtasida oziq-ovqat mahsulotlarini boyitishga oid ilmiy tadqiqotlar, xususan anemiya bilan kasallanishni bir yil davomida 5-7 foizga kamaytirishga erishildi. Olingan natijalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 avgustdagi 2005-2009 yillarga mo'ljallangan «Unni fortifikatsiya qilish haqidagi milliy dastur» loyihasi ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari haqidagi 153 - sonli qaror qabul qilinishiga asos bo'ldi.

Qonunda asosiy tushunchalar quyidagicha ko'rsatib o'tilgan:

- mikronutrientlar – inson organizmining normal o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan, o'rnini boshqa narsa bosa olmaydigan oziq-ovqat moddalari (vitaminlar va mineral moddalar);
- mikronutrient yetishmovchiligi – inson organizmiga oziq-ovqat bilan tushadigan mikronutrientlar yetarli emasligi sababli kasalliklarning rivojlanishiga olib keladigan holat;
- boyitilgan oziq-ovqat mahsuloti - ishlab chiqarilishi jarayonida mikronutrientlar bilan boyitilgan (fortifikatsiya kilingan) oziq-ovqat mahsuloti;
- mikronutrientlar samentatsiyasi - aholining muayyan guruhlari o'rtasida mikronutrientlarning dori vositalari tarzida profilaktik dozalarda qo'llanilishi;

- aholining muayyan guruhlari - mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi chora-tadbirlari amalga oshirilayotgan aholi guruhlari.

Qonunda aholi o'rtasida mikronutrient yetishmovchiligi profilaktikasi tartibga solinishi va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri qilib belgilangan, ya'ni:

- aholini boyitilgan oziq-ovqat maxsuloti bilan ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy xuquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- boyitilgan oziq-ovqat maxsulotlarining va oziq-ovqat maxsulotlarini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarining sifati hamda xavfsizligi ustidan davlat nazoratini ta'minlash;

- boyitilgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishini rivojlantirish;

- oziq-ovqat maxsulotlarini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalar ishlab chiqarilishini qo'llab quvvatlash;

- mikronutrientlar samentatsiyasi;

- aholi o'rtasida mikronutrientlar yetishmovchiligi profilaktikasiga qaratilgan dasturlar amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash;

- mikronutrient yetishmovchiligini aniqlashni zamonaviy texnologiyalarini va uning profilaktikasi usullarini rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlarni qo'llab quvvatlash;

- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining aholi o'rtasida mikronutrient yetishmovchiligi profilaktikasiga oid vakolatlariga quyidagilar kiritilgan:

- aholi o'rtasida mikronutrient yetishmovchiligi profilaktikasida davlat sanitariya nazoratini amalga oshiradi;

- aholi o'rtasida mikronutrient yetishmovchiligi profilaktikasi davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- mikronutrientlar bilan boyitilishi lozim bo'lgan oziq-ovqat maxsulotlarining ro'yxatini aniqlaydi;

- boyitilgan oziq-ovqat maxsulotlarining va oziq-ovqat maxsulotlarini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarining xavfsizligiga doir majburiy talablarga taaluqli texnik jihatdan tartibga solish ishlarini tashkil etadi va uning bajarilishini ta'minlaydi;

- aholining mikronutrientlar samentatsiyasi o'tkazilishi lozim bo'lgan muayyan guruxlarni aniqlaydi;
- oziq-ovqat maxsulotlarini boyitish uchun mikronutrientlarning normalari va tavsiya etiladigan darajalarini ishlab chiqadi;
- mikronutrientlar samentatsiyasini tashkil etadi;
- aholi o'rtasida mikronutrient yetishmovchiligi profilaktikasi bo'yicha sanitariya-gigiyena va tushuntirish ishlarini olib boradi;
- aholi o'rtasida mikronutrient yetishmovchiligi profilaktikasiga qaratilgan dasturlarning amalga oshirilishini monitoring qiladi va baholaydi.

Qonun asosida aholi o'rtasida mikronutrient yetishmovchiligi profilaktikasi bo'yicha quyidagilar amalga oshiriladi:

- boyitilgan oziq-ovqat maxsulotiga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va uni iste'mol qilishni ta'minlash;
- mikronutrientlar samentatsiyasi;
- sanitariya-gigiyena va tushuntirish ishlari.

Qonunda davlat boshqaruvi, Vazirlar Mahkamasi vakolatlari, vazirliklar va maxalliy davlat hokimiyati organlari joylarda aholi o'rtasida mikronutrientlar profilaktikasi sohasida vitamin-mineral aralashmalarini ishlab chiqish, sertifikatlashtirish, realizatsiya qilish, reklama hamda nizolarni hal qilish borasida aniq vazifalar ko'rsatib o'tilgan.

Qabul qilingan qonun o'z mazmuniga ko'ra oziq-ovqat mahsulotlarini doimiy boyitishni ta'minlash bilan birga aholining mikronutrientlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida onalar va bolalar o'rtasida o'lim va kasalliklarni kamaytirish orqali ularning salomatligini yaxshilaydi hamda sog'lom avlodni shakllantirishni ta'minlaydi.

Ushbu Qonun onalar va bolalar o'rtasida mikronutrientlar tanqisligining oldini olishda ilmiy xodimlar oldiga katta ma'suliyat yuklaydi. Ushbu qonundan kelib chiqib, Samarqand tibbiyot instituti professor-o'qituvchilari aholini mikronutrientlar yetishmovchiligi parofilaktikasini rivojlantirish borasida bir qator ilmiy ishlarni rejalashtirdilar. Olingan natijalar asosida va ko'p yillar mobayinida oziq-ovqat tarkibida mikroelementlar miqdorini aniqlash, onalar va bolalar uchun mikroelementlarga boy bo'lgan oziq-ovqat maxsulotlarini tanlash, tavsiya qilish borasida mikroelement tanqisligiga moyil bo'lgan guruhlarni aniqlash va ularning profilaktikasi bo'yicha 200 dan ortiq ilmiy-tadqiqot ishlarini chop ettirdilar. Bu borada 2 ta monografiya, 15 dan ortiq uslubiy qo'llanmalar va broshyuralar chiqarildi. 2006 yilda

Respublika Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Fan va texnologiyalar qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan ilmiy-amaliy tadqiqotlar respublika tanlovida «Maktab yoshidagi bolalarda mikroelementozlar diagnostikasi, davosi va profilaktikasi» mavzusida olib borilgan amaliy tadqiqot ishlari g'olib deb topildi.

Qo'lingizdagi kitobda mahalliy aholi tomonidan ko'p iste'mol qilinadigan tok va uzum maxsulotlarining shifobaxsh xususiyatlarini va mikronutriyent tarkibini ilmiy jihatdan o'rganish natijalari asosida tavsiyalar bayon qilinadi.

Ampeloterapiya – uzum va uning xosilalarining davolash xususiyatlarini o'rganadigan tibbiyotdagi aloxida yo'nalish bo'lib, hozirgi vaqtda samarali usul sifatida e'tirof etilgan.

Mazkur kitobda tok, uzum va uzumdan olinadigan turli xil foydali ichimliklarning asosidagi mikronutriyentlar tarkibiga ahamiyat qaratildi va uning shifo xususiyatlariga batafsil to'xtalib o'tildi. Shuni ta'kidlash joizki, xalqimiz tomonidan qadimdan doimiy iste'mol qilinib kelinadigan uzum, mayiz, uzum sharbati hamda ilmiy tomondan kam yoritilgan va xalq o'rtasida kam iste'mol qilinib kelinayotgan shinni va g'o'rob va boshqa ichimliklarning tarkibini, shifobaxshlik xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish bilan birga, ularning inson salomatligida tutgan o'rni va ahamiyatini ochib berishga harakat qildik.

Ta'kidlash lozimki, uzum, uzum sharbati, uzum sharobining(vino) kimyoviy tarkibi ilmiy tadqiqotlarda yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, tok maxsulotlarining mahalliy aholi tomonidan tayyorlanadigan va kam miqdorda iste'mol qilinadigan maxsulotlarining tarkibi va shifolik xususiyatlari aholiga unchalik ma'lum emas. Tok mahsulotlarining aholi oziq-ovqat muammosini hal etishdagi tutgan o'rni va rolini inobatga olib, shu bilan birga inson salomatligini asrashda ularning shifobaxsh xususiyatlarini ochib berish maqsadida odam organizmining o'sish va rivojlanishida, salomatligini himoyalashda, kasalliklardan asrash va ularga barham berishda nihoyatda muhim bo'lgan makro- va mikroelementlarni aniqlashga yanada ko'proq diqqat-e'tibor ajratishga qaror qildik.

Mevalar va o'simliklar tarkibidagi makro- va mikroelementlarning organizm uchun foydaliligi

Ko'pgina o'simliklarning shifolik xususiyatlari qadimdan ma'lum, bu bilan taniqli olim va shifokorlar, tabiblar va boshqa qiziquvchilar shug'ullanganlar. Aksariyat hollarda davolash muvaffaqiyatsiz chiqqan. Buning sababi shundaki, aholi tomonidan tavsiya etiladigan o'simliklarning shifobaxshligi yetarli darajada o'rganilmagan va kishi tanasiga biologik faol moddalarning ta'sir mexanizmi tushunarsiz qolgan, shuning uchun ham ularni tibbiyot amaliyotida oqilona ko'llash mumkin bo'lmagan. Shunga qaramasdan, biologik faol moddalarning u yoki bu fiziologik, farmakologik ta'siri natijasida xastalik jarayoni o'z-o'zidan to'xtaydi, kasallik bataraf etiladi va bunda bemor me'yoriy hayotga qaytishi mumkin.

O'simliklarda asosiy moddalar qatorida terapevtik ta'sirga ega bo'lgan qo'shimcha birikmalar ham mavjudki, ular asosiy moddaning so'rilishini ta'minlashga ko'maklashishi tufayli foydali yoki salbiy ta'sirga ega bo'ladi. Bundan tashqari, shunday ballast moddalar borki, ular hech qanday farmakologik ta'sirga ega bo'lmaydi.

O'simliklarda yig'iladigan va sintez qilinadigan biologik faol moddalar ichida fitoterapiyada muhim sanaladigan farmakologik aktiv alkaloidlar, glikozidlar, yog' va efir moylari, oqsil va vitamin, taninlar, flavonoidlar, fermentlar qatorida makro- va mikroelementlar roli nihoyatda muhim. Shu bois makro- va mikroelementlarning biologik roli va ularning organizmga ko'rsatadigan ta'sirini bayon qilib beramiz.

Mevalar va o'simliklar tarkibidagi makro- va mikroelementlarning organizm uchun foydaliligi.

Ko'pgina o'simliklarning shifolik xususiyatlari qadimdan ma'lum, bu bilan taniqli olim va shifokorlar, tabiblar va boshqa qiziquvchilar shug'ullanganlar. Aksariyat hollarda davolash muvaffaqiyatsiz chiqqan. Buning sababi shundaki, aholi tomonidan tavsiya etiladigan o'simliklarning shifobaxshligi yetarli darajada o'rganilmagan va kishi tanasiga biologik faol moddalarning ta'sir mexanizmi tushunarsiz qolgan, shuning uchun ham ularni tibbiyot amaliyotida oqilona ko'llash mumkin bo'lmagan. Shunga qaramasdan, biologik faol moddalarning u yoki bu fiziologik, farmakologik ta'siri natijasida xastalik jarayoni o'z-o'zidan to'xtaydi, kasallik bataraf etiladi va bunda bemor me'yoriy hayotga qaytishi mumkin.

O'simliklarda asosiy moddalar qatorida terapevtik ta'sirga ega bo'lgan qo'shimcha birikmalar ham mavjudki, ular asosiy moddaning

soʻrilishini taʼminlashga koʻmaklashishi tufayli foydali yoki salbiy taʼsirga ega boʻladi. Bundan tashqari, shunday ballast moddalar borki, ular hech qanday farmakologik taʼsirga ega boʻlmaydi.

Oʻsimliklarda yigʻiladigan va sintez qilinadigan biologik faol moddalar ichida fitoterapiyada muhim sanaladigan farmakologik aktiv alkaloidlar, glikozidlar, yogʻ va efir moylari, oqsil va vitamin, taninlar, flavonoidlar, fermentlar qatorida makro- va mikroelementlar roli nihoyatda muhim. Shu bois makro- va mikroelementlarning biologik roli va ularning organizmga koʻrsatadigan taʼsirini bayon qilib beramiz.

Makroelementlar

Kaliy (K)

Kaliy - hujayra ichi asosiy elementi, katta kishilar organizmida kaliyning umumiy miqdori 170-180 g, qon plazmasida esa 3,8-5,4 mmol/l boʻladi. U natriy bilan birgalikda modda almashinishda ishtirok etadi, metabolik (modda almashish) jarayonda zaharlarni chiqarishda buyrakka madad beradi, yurak ritmini normallashtiradi, yurak glikozidlarining yurakka nojoʻya taʼsirini bartaraf etadi. Bundan tashqari kislotali-ishqorli muhitni asraydi, suv balansini boshqarish bilan qon bosimi meʼyoriyligini taʼminlaydi, miyaga kislorod yetkazib beradi, shlaklarni chiqishini yaxshilaydi. Kaliy organizmda shish boʻlganda ortiqcha suvni chiqarishni taʼminlaydi (siydik haydash xususiyati mavjud). Shu bois yurak-tomir, buyrak kasalliklarida kaliyga boʻlgan talab ortadi.

Bir kunlik kaliyni isteʼmol qilish miqdori 900 mg dan 2-4 g gacha yetadi. A.V.Andryushenko(1980) maʼlumotlariga koʻra, kaliyga boy maxsulotlar – turshak(8,4%), qovun qoqi(7,69%), uzum(2,02%), kartoshka(0,4%). Yashil bargli sabzavotlar, koʻkatlar, sitrus mevalari, banan, sut maxsulotlari ham kaliyga boy.

Olib borgan tadqiqotlarimiz ayrim mahsulotlarda kaliy miqdori yuqori ekanligini koʻrsatdi. Mevalardan: turshakda - 7,2%, uzum gʻoʻrobida -6,6%, qora uzumda - 5,7%), oq kishmishda - 0,6-1,1%, shaftolida - 1,2-2,4%, qorali(olxoʻri)da - 1,2-1,8%, olmada - 0,8-0,6%, qovunda - 2,4%, qora smorodinada - 1,2-1,6%, jiyda, tut, doʻlana va nokda - 1%; oʻsimliklardan – pomidorda - 3,1-5,5%, sholgʻomda - 3%, lavlagida - 2,7%, kadida - 2,63%, kartoshkada - 1-2,1%, loviyada - 1,8-2%, moshda - 1,6-1,7%, noʻxatda - 0,8-1,6%; hayvon maxsulotlaridan – goʻsht va tuxumda - 1,4%, xalisada - 0,6%, chakka(suzma)da - 0,6%, asalda - 0,24% miqdorda boʻlishini aniqladik.

Kaliyning funktsional faolligi alkogol, qahva, shakar va siydik haydovchi dorilar iste'mol qilganda kamayadi.

Gipokaliyemiya – kaliyning qonda $4 \text{ mmol}\text{/l}$ dan kamayishidir. Gipokaliyemiya organizmga ovqat bilan kaliyning kam tushishi, buyrak orqali ko'p chiqib ketishi, oshqozon-ichak shirasini yo'qotish (qusish, diareya), tomirlarga kaliysiz suyuqliklar quyishdan so'ng kelib chiqadi. Gipokaliyemiya alomatlari turlicha, bunda asab-mushak tolalaridan o'tkazuvchanlikning buzilishi ichak atoniyasiga olib keladi, tomirlar va mushaklar tonusi pasayadi, EKG o'zgarishlari(Q-T intervali uzuyishi, T-tishcha voltaji pasayishi), makaziy asab sistemasi faoliyati o'zgarishi(depressiya), yurak faoliyati buzilishi (bradikardiya, arterial gipotoniya). Kaliy yo'qotilishi natijasida vodorod ionlarining buyrakdan chiqib ketishi alkalozga olib keladi.

Giperkaliyemiya (kaliyning qonda $5 \text{ mmol}\text{/l}$ dan oshib ketishi) – organizmga ovqat bilan kaliyning ko'p tushishi, buyrak orqali ko'p ajratilishi, to'qima parchalanishi natijasida va boshqa holatlarda kelib chiqadi. Kaliy ko'payishi bilan rN miqdorining oshishi atsidozga olib keladi. Giperkaliyemiya bradikardiya, mushak parezi, paralichlar, paresteziya, oyoq mushaklarida og'riq, dispeptik buzilishlar, buyrak faoliyati buzilishi va yurak tuxtashigacha olib kelishi mumkin. Giperkaliyemiya tanaga izoosmotik eritmalar glyukoza va insulin bilan yuborish bilan bartaraf etiladi.

Kaliyning vino tarkibidagi miqdori (K_2O) $0,45\text{-}1,35 \text{ g/l}$ atrofida, desert vinoda ko'proq, uzoq saqlangan vinoda uning miqdori biroz kamayadi.

Natriy (Na)

Natriyga bo'lgan sutkalik ehtiyoj 4 g atrofida. Kaliy bilan birgalikda bufer sistemasini ta'minlovchi kislotali asosiy muvozanatni ushlab turadi. Asosan buyrakda modda almashinish va qon plazmasi osmotik bosimini boshqarishda qatnashadi. Natriy barcha nerv va mushak hujayralari membrana potentsiallari qo'zg'aluvchanligini ushlab turish uchun kerak. Organizmda biologik suyuqliklar(limfa, oshqozon-ichak shirasi), hujayra hamda tog'ay va suyak tarkibida xloridlar, fosfatlar, bikarbonatlar ko'rinishida bo'lib suyuqlik muvozanatini ta'minlaydi. Hujayra tashqarisida uning kontsentratsiyasi $140 \text{ mmol}\text{/l}$, hujayra ichida esa – $20 \text{ mmol}\text{/l}$, natriyning qariyb $1/3$ qismi skelet hisobiga to'g'ri

keladi. Natriy almashinuvining buzilishi organizmda suv balansining buzilishi bilan bog'liq. Natriy nerv va mushak ishini boshqarish bilan birga issiq va quyosh urishidan himoya qilishda qatnashadi.

Odam organizmda 250 g atrofida natriy bor. Natriyni organizm tarkibida tuz bo'lgan ovqat va sabzavotlar, masalan osh tuzi, dengiz mahsulotlari, go'sht, ovqatlar, lavlagi, sabzi, non, go'sht singarilardan oladi.

P. Pietinen (1982) ma'lumotiga ko'ra natriy eng ko'p miqdorda organizmga non (20%), go'sht mahsulotlari(12%), va salatlar bilan(40%) tushadi. Natriyni yo'qotish va ko'p iste'mol qilish tuz almashinuviga manfiy va musbat ta'sir ko'rsatadi. Natriy xlorini(osh tuzi) ko'p iste'mol qilish gipertoniya kasalligini kelib chiqishida asosiy xavf tug'diradigan omillardan biri. Bemorlarda natriy tuzlari shishga, jigar va buyrak faoliyatining buzilishiga olib keladi. Yurak-tomir va boshqa kasalliklarda organizmda natriy ushlanib qoladi. Buni hisobga olgan holda tarkibida natriy kam bo'lgan meva va sabzavotlarni ovqat ratsioniga ko'p miqdorda kiritish lozim bo'ladi. Yetarli miqdorda natriy organizmga tushmasa(ayniqsa ko'krak yoshidagi bolalarda) giponatriyemiya kelib chiqadi, bunda natriyning qondagi konsentratsiyasi 135 mmol/l dan pasayadi. Bunday holat natriyni organizmdan kuchli terlash, qusish, ich ketish oqibatida faol chiqib ketishida ham sodir bo'ladi. Davom etuvchi qusishda natriyni yo'qotish kuniga 15% ni tashkil etishi mumkin. Bunday hollarda suv iste'mol qilish natriy konsentratsiyasining yanada kamayishiga olib keladi. Natriyni yo'qotish buyrak kanalchalaridan natriy reabsorbsiyasi kamayishi evaziga bo'lishi mumkin. Buyrak orqali natriy. chiqarilishining kuchayishi organizmga kaliy tuzlari ko'p tushganda kuzatiladi. Giponatriyemiya gipoosmolyar suyuqliklarni ko'p miqdorda yuborish va qandli diabetda gipoksiya holatida kuzatilishi mumkin. Natriy yetishmaganda darmonsizlik, loqaydlik, es-hushning buzilishi, ko'ngil aynish, qusish, gipotoniya, mushak qaltirashi kabi belgilar paydo bo'ladi. Gipernatriyemiyada esa qo'zg'aluvchanlik, gipertermiya, chanqoqlik, tutqanoq va hushni yo'qotish kuzatiladi.

Natriyning vino tarkibidagi o'rtacha miqdori (NaO_2) 0,02-0,15 mg/g gacha. Sho'rlangan yerlarda o'stirilgan uzumdagi natriy miqdori 2 g/l gacha yetadi.

KALTSIY (Ca)

Qonda kaltsiy ikki formada: 50% ionlashgan (aktiv) va 50% oqsil bilan bog'langan, ionlashmagan bo'ladi. Atsidozda ionlashish kuchayadi

(qandli diabet, onkologik kasalliklar), alkalozda esa – kamayadi(o'pka giperventilyatsiyasi), ya'ni bunda kaltsiy noaktiv holatda bo'ladi.

Kaltsiy hujayra komponentining asosiy strukturasi hisoblanadi, nerv qo'zg'alishi jarayonida, mushak qisqarishida, gormonlar sekretsiyasida, qon ivish jarayonida qatnashadi. So'nggi yillarda amerikalik olimlar tomonidan kaltsiyning organizmda yana bir muhim roli borligi aniqlandi. Gipertoniya kasalligida bemorga qon bosimi oshishiga sabab bo'ladigan osh tuzi miqdorini bemorga kamaytirish tavsiya etiladi. Ma'lum bo'ldiki, natriyni kamaytirish emas, balki gipertoniya kaltsiy miqdorini ikki bor oshirish samarali ekan. 5000 bemorda olib borilgan tadqiqotlar kaltsiy qon bosimini normallashtirishdagi xususiyati isbotlandi. Bir yarim oydan so'ng 85% bemorlarda faqat ikki marta kaltsiy miqdorini oshirish evaziga qon bosimi me'yorlashgan.

Kaltsiy va fosfor miqdorini qonda doimiy ravishda bir xilliligini boshqarish asosan kaltsitonin va paratgormonga bog'liq. Kaltsitonin – gipokaltsemik samara beruvchi qalqonsimon bezning S-hujayralari gormonidir. Qalqonsimon bez va qalqonsimon oldi bezining hamkorlikdagi faoliyati kaltsiyning doimiy gomeostazini ta'minlaydi. Kaltsiyning miqdorini qonda turli sabablarga ko'ra kamayishi qalqonsimon oldi bezining faoliyatini stimullaydi. Ajraladigan paratgormon suyak oqsil matritsasini buzib, kaltsiy qonga chiqaradi(giperkaltsiyemiya), fosforning buyrak kanalchalarida qayta so'rilishini to'xtatadi (gipofosfatemiya, giperfosfaturiya).

Qonda kaltsiyning turli yo'llar bilan ko'payishi qalqonsimon bezning S-hujayralari faoliyatini stimullaydi. Ajralib chiqqan kaltsitonin kaltsiy buyrak orqali qondan chiqarib, suyakdan chiqishini to'xtatish bilan qonda kaltsiy kamaytiradi(gipokaltsemiya, giperfosfatemiya).

Fosfor-kaltsiy almashinuvining buzilishi qonda kaltsiyning kamayishiga – gipokaltsemyaga olib keladi, bu qalqonsimon oldi bez gipofunktsiyasida, tireokaltsitonin gipersekretsiyasida va ingichka ichakda kaltsiy so'rilishining kamayishida kuzatiladi. Doimiy gipokaltsemiya asab-mushak qo'g'aluvchanligining oshishiga va tutqanoqqa olib keladi. Bu shunday tushuntiriladiki, kaltsiy ionlari kaliy ionlarining antagonistlari hisoblanadi. Gipokaltsemyada giperkaliyemiya kuzatiladi. Kaliy nerv impulslari o'tkazuvchanligini nerv hujayralari sinapslarida oshiradi.

Kaltsiyning hujayra tashqarisida kamayishi ionlar uchun biologik membranalarining o'tkazuvchanligini oshirishni ta'minlaydi. Buning

natijasida normal elektrokimyoviy potentsial pasayadi, mushaklarning bir yo‘la qisqarishi kuzatiladi, tutqanoq yuzaga keladi. Nafasning to‘xtashi o‘limga olib keladi.

Kaltsiy yetishmasligi 150 dan ortiq kasalliklarga sabab bo‘ladi. Bu yuz nervining paralichi, raxit, spazmofiliya, osteoporoz, artrit, siydik-tosh kasalligidir.

Giperkaltsiyemiya – qonda kaltsiy miqdorining ko‘payishi quyidagi holatlarda kuzatiladi:

- 1) qalqonsimon oldi bezi giperfunktsiyasida;
- 2) kaltsitonin giposekretsiyasida;
- 3) organizmda vitamin D ko‘payganda;
- 4) atsidozda.

Kaltsiy miqdori vino tarkibida turlicha bo‘lib tayyorlash texnologiyasi va saqlash muddati, saqlangan idishlarga bog‘liq holda o‘zgaruvchan bo‘lib o‘rtacha 0,07-0,14 g/l ni tashkil etadi.

Magniy (Mg)

Magniy biokimyoviy va fiziologik jarayonlarni boshqaruvchi muhim makroelement bo‘lib, avvalambor fermentlarning hamkoromil rolini va ion kanallarining modulli funktsiyasini bajaradi.

Magniy tarqalishi bo‘yicha ikkinchi hujayra ichi kationi hisoblanib, energetik, plastik va elektrolit almashinuvida qatnashadi.

Keyingi o‘n yillar davomida magniyning organizmga tushishi kamayishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablari ovqatlanish xususiyati va ekologik omillar, ekosistemada magniy miqdorining umumiy kamayishi bilan belgilanadi [Spasov A.A., 2000]. Amerikada aholisi o‘rtasida gipomagneziyemiya 2,5-15%[Ma J. et al., 1995], Germaniyada – 14% uchraydi [Schimatschek H.F., Rempis R., 2001]. Rossiya aholisi o‘rtasida magniy yetishmovchiligi elementlar patologiyalari ichida yod, kaltsiy, rux, selen tanqisligi qatorida turadi. [Tutelyan V.A., 2002].

Magniy hujayra ichi elementi sanaladi. Qon zardobida magniy 1,8-2,5 mmol/l, eritrotsitlarda – qariyb 3,5 mmol/l, to‘qima hujayralarida esa – 16 mmol/l ga teng, magniyning ko‘p qismi skeletda bo‘ladi. Odam tanasida magniy 20 g atrofida bo‘ladi. Magniy uglevodlarning, -fosfataza, fosforilaza fermentlari faoliyatini parchalanish katalizatorlari hisoblanadi.

Zamonaviy tushunchalarga ko‘ra, magniy tanqisligi 1) funktsional aktiv fermentlarning yetishmovchiligi, 2) qo‘shuvchi to‘qimaning tarqoq yallig‘lanishi, so‘ngra sistemali displaziyasi rivojlanishi, 3) Ca:Mg

nisbatining kritik o'zgarishi, elektrolit almashinuvi, asosiy biokimyoviy va fiziologik jarayonlarning buzilishi evaziga kelib chiqishi bilan xarakterlanadi.

So'nggi yillarda Mg^{2+} ionlari roli 200 dan ortiq fermentativ reaksiyalarda ishtiroki bilan bog'liqligi isbotlangan. U asosan fermentlarni faollashtiradi, uglevodlar almashinuvini boshqaradi, oqsillar sintezini stimullaydi, ATF ga energiyani saqlash va ajralishini boshqaradi, nerv hujayralar qo'zg'alishini kamaytiradi, yurak mushaklarini bo'shashtiradi. Ko'pchilik tadqiqodchilar magniyni antistressor, antioksidant aktivlikka ega material deb nomlashadi. U DNK va RNK sintezida ishtirok etuvchi ko'pgina fermentlar tarkibiga kiradi, tomirlar devorida modda almashinuvni yaxshilaydi. Magniy kaltsiy, fosfor, kaliy, B, C, E, vitaminlar guruhidagi modda almashinuvida, nerv va mushaklar faoliyatida, qondagi shakarning energiyaga aylanishida ishtirok etadi va yurak faoliyatini boshqarishda uning roli katta.

Magniyga sutkalik ehtiyoj 1 kg vaznga 6-8 mg ni tashkil etadi. Katta kishilarda magniyga bo'lgan talab sutkada – 300-400 mg. 1-10 yoshli bolalarning sutkalik ehtiyoji kuniga 80 dan 170 mg gacha. Magniy asosan maydalanmagan yormalar, ko'katlar, sabzavotlar, mevalar hamda go'shtli va baliq maxsulotlarida mavjud. Odam uchun eng yaxshi magniy tutadigan yeguliklar - limon, greypfruktlar, yong'oqlar, olmalar, qora-ko'k rangli sabzavotlardir. Magniy so'rilishining kamayishiga alkogol va siydik haydovchi preparatlar iste'mol qilish sabab bo'ladi.

Organizmida magniy yetishmovchiligining umumiy alomatlariga bola jismoniy faolligining susayishi, charchash yoki depressiya, xotira pasayishi, uyqu buzilishi, tutqanoq holatlari, mushak tirishishlari (tetaniya), og'riq sezishning kuchayishi xos.

Birlamchi va ikkilamchi gipomagniyemiya tafovut qilinadi. Birlamchi nasliy gipomagniyemiya adabiyotlarda sindrom Gitelman nomi bilan ataladi. Ikkilamchi gipomagniyemiya sabablari uzoq och qolish, kuchli diareya, tanaga tarkibida magniy bo'lmagan suyuqliklarni ko'p yuborishdan iborat.

Magniyni so'rilishini kamaytiradigan maxsulotlarga yog' kislotalarini ortiqcha iste'mol qilish, yormalarda mavjud fitin kislotasi, fosfatlar, vitamin D tanqisligi va h. kiradi.

Organizmida magniy yetishmovchiligi surunkali stressni o'tkazganlar uchun xos, surunkali toliqishda, qandli diabetda uchraydi. Magniy miqdorining ko'payishi qalqonsimon oldi va qalqonsimon bezi faoliyati oshganda, nefrokaltsinozda, artritda, psoriazda, bolalar

disleksiyasida uchraydi. Mg ko'payishi sedativ effekt chaqiradi, nafas markazi faoliyatini susaytiradi.

S. Xeyde ma'lumotlariga ko'ra vino tarkibida magniy miqdori (MgO) 0,1-0,24 mg/l ni tashkil qiladi va ayrim hollarda 0,51 mg/l ga teng bo'ladi.

Mikroelementlar

Temir (Fe)

Temir – gemoglobin molekulasiga kiruvchi antianemik mineral, hujayra oksigenatsiyasida ishtirok etadi, organizm tomonidan faqat vitamin S va Ye ishtirokida o'zlashtiriladi, teriga qizil rang beradi. Temirning organizmdagi roli juda ko'p – bu element V guruhdagi vitaminlar hosil qilishda, bolaning o'sishi va immunitet rivojlanishida ahamiyati katta. Temir moddasi organizmning muhim bioelementi bo'lib, modda almashinuvida faol ishtirok etadi. Temirning organizmdagi asosiy roli – kislorod tashish, bevosita va bilvosita oksidlanish jarayonida qatnashadi. Shuning uchun ham, kamqonlikka chalingan bemorlarda tez charchash, toliqish, darmonsizlik, ish qobiliyatining pasayishi, havo yetishmaslik va bosh aylanishi kabi holatlar uchrab turadi. Temir immun sistemasi normal kechishini ta'minlaydi, ayniqsa virusga qarshi himoyani yaxshilaydi. Shu sababli temir tankisligi oqibatida bolalarning virusli infeksiyalarga chalinishi sog'lom bolalarga nisbatan uch barobar, virusli gepatitning ikki marta ko'p uchrashi hamda yiringli kasalliklarga chalinishi aniqlangan.

Tekshirishlar natijasida aniqlanganki, erta yoshli bolalarda temir tanqisligi biokimyoviy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatib bosh miya faoliyati va ruhiy holatining buzilishiga olib keladi. Qon va mushakdagi gemoglobin va mioglobindan tashqari temirning ko'p miqdori miya hujayralari tarkibida bo'ladi, shu sababli temirning yetishmasligi asab-ruhiy rivojlanishning buzilishlariga olib keladi. Bolalarda intellektual rivojlanish pasayib, so'zlash, fikrlash va nutq rivojlanishi susayadi, bu hol bolani o'qitishda bir qator kiyinchiliklar tug'diradi. Asosan temir tanqisligi to'rtta muhim a'zolar faoliyatining buzilishiga olib keladi: qon, asab tizimi, immun va iqlashuv tizimlari ziyon ko'radi. Bu o'zgarishlar ayniqsa bolalalik davrlari uchun xosdir.

Katta yoshdagilarda esa qon tizimidan boshqa a'zolaridagi o'zgarishlar sezilarli bo'lmaydi.

Odam organizmida 5 g gacha temir bor. Uning 70% gemoglobin hisobiga to'g'ri keladi, bir qismi mushaklarda (mioglobin), oksidlovchi-qaytalanuvchi fermentlarda(peroksidaza, sitoxrom va b.) bo'ladi. Temir oqsil bilan birikkan holda organizmda to'planadi(ferritin) va juda kam miqdorda to'qimalarda(mioglobin) bo'ladi.

Katta kishilarning bir kunlik temirga ehtiyoji – 15 mg. Bolalik davrining asosiy qismida temirning ovqat orqali so'rilishi uning yo'qotilishidan ustun turadi, bola organizmida temirning ijobiy muvozanatini saqlaydi va zahirada to'planishini ta'minlaydi, katta yoshli kishilarda temirning so'rilish miqdori va sarf qilinishi deyarli bir xil.

Bolalarda temir muvozanatining asosiy xususiyatlari kattalarnikidan farqi temirning ovqat bilan ekzogen tushishi bilan belgilanadi. Masalan, kattalarda gemoglobin hosil qilish, temir tutuvchi boshqa fermentlarni sintezi 95% yashab bo'lgan va destruktiviyaga uchragan eritrotsitlar hisobiga, va 5% ovqat maxsulotlardan temirning so'rilishi evaziga qoplansa, 1 yoshgacha bolaning o'sishini ta'minlash uchun 70% eritrotsitar temirning reutilizatsiyasi hisobiga qoplansa, 30% bu ehtiyoj ovqatdan temirning absorbtiviyasi hisobiga ta'minlanadi(A.A.Buglanov va b., 2002).

Temir tanqisligi kelib chiqish mexanizmi quyidagicha: erkaklarda temirga sutkalik ehtiyoji 1-1,65 mg/sut, ayollar va qiz bolalarda – 2-3 mg/sut, hayz ko'rgan qizlarda va balog'at yoshidagi bolalarda – 4-5 mg/sut, 1 yoshgacha – 0,9 mg/sut. Odam organizmiga bu ehtiyoj qondirilishi uchun bir kunda 15– 20 mg temir moddasi tushishi kerak va faqat shuncha miqdordagi temir ovqat bilan tushadi, uning 10– 15% so'riladi, bu esa 2,5– 3 mg temirni tashkil etadi, demak tabiiy muvozanat mavjud va bu muvozanat qon ketishda va temir so'rilishining buzilishida izdan chiqishi mumkin(10-15%). (L.G.Kovaleva, 2001). Temirning organizmda so'rilishi ko'pgina omillarga bog'liq. Temir elementi go'sht mahsulotlaridan yaxshi so'rilada(20-30%), sabzavot, meva, sut va yormalardan kam(2-7%) so'riladi, uning so'rilishi go'sht mahsulotlari bilan birga yangi uzilgan sabzavot, meva va ularning sharbatlari, ko'katlar va o'simliklar bilan birga iste'mol qilinganda yuqori bo'ladi. Aksincha,

sunʼiy shirinliklar(shakar, navvot, konfetlar), choy, qahva temir moddasi soʻrilishini kamaytiradi. Temirning soʻrilishi oʻn ikki barmoq ichakning boshlangʻich qismida va ingichka ichakda soʻriladi va transferrin oqsili yordamida toʻqimalarga tashiladi, keyinchalik boshqa oqsildan tashkil topgan ferritin temirni organizmning jigar, taloq makrofaglarida va hattoki bosh miyada toʻplanishini taʼminlaydi (P.A.Vorobev, 2000). Temir tanqisligi toʻrt muxim aʼzolarining faoliyatini chuqur buzilishiga olib keladi: qon sistemasi, nerv sistemasi, immun sistemasi va adaptatsion sistema zarar koʻradi. Ayniqsa bu bolalar uchun xos(A.A.Buglanov va b.,1991).

Ayollarda temirga boʻlgan ehtiyoj erkaklarga nisbatan 30-60% (fiziologik yoʻqotishlar hisobiga) koʻp. Bir oy mobaynida ayollar temirni erkaklarga nisbatan 2 marta koʻp sarflaydilar, ayniqsa xomilador va emizuvchi ayollarda shunday.

Temir tanqisligi ovqatda temirning ovqat maxsulotlari tarkibida kamligidan, yoki ichaklardan temirning yomon soʻrilishi natijasida (ovqatda noorganik fosfor boʻlsa, choy, sunʼiy shirinlik koʻp isteʼmol qilish va h.), hamda bolalarda oʻsish davrida temirning koʻp sarflanishi oqibatida kelib chiqishi mumkin.

Organizm ehtiyoji uchun temir quyidagi tabiiy oзуqalarda yaʼni, mol jigari, buyragi, yuragi, kepakli un, xom mollyuskalar, shaftoli qoqi, qizil vino, tuxum sarigʻi, ustritsalar, yongʻoq, dukkakli yormalar, sparja, uzum va tut shinnisi, suli va boshqalarda mavjud.

Tok oʻsimligining turli qismlari tarkibida temir miqdori turlicha: uzum magʻzida - 5,2-7,6 mg/kg, qobigʻida - 5,2-7,216,8 mg/kg, urugʻida - 1,0-1,4 mg/kg, umumiy uzumdagi miqdori - 11,4- 16,8 mg/kg(J. Robero-Gayon va b.,1960). Uzum vinosida temir miqdori 4-10 mg/l ni tashkil etadi.

Mis (Cu)

Hozirgi vaqtga kelib bu elementning odam organizmida tutgan oʻrni haqida koʻplab maʼlumotlar toʻplangan(Kopiko M.V. va b., 2000; Netrebenko O.K., 2005). D.Emsli boʻyicha (1993) katta kishilar organizmida mis miqdori (oʻrtacha 75 kg vaznda) 72 mg; qonda – 1,01 mg/l; mushak toʻqimasida - 1.10 -3 %; uning toksik dozasi > 250 mg, ovqat bilan kunlik qabul qilish -0,50 - 6 mg.

Katta kishilar organizmida 1,57-3,14 mmolъ mis bor, shundan uning miqdorini yarmi mushak va suyaklarga toʻgʻri kelsa, 10% - jigar toʻqimasiga. Mikroelementning koʻpgina qismi oʻpka, ichak, taloq, teri va

sochlarda bo'ladi. Qon tarkibida o'rtacha 100 mkg mis bor, shuning 60 mkg eritrotsit va leykotsitlarga to'g'ri keladi. Misning ko'pgina qismi mis tutadigan oqsil – seruloplazmin tarkibidadir.

Bolalik va o'smirlik davrida organizmning misga bo'lgan ehtiyojini qoplashda minerallarga boy bo'lgan ovqatlar qabul qilish katta ahamiyatga ega. Ovqat bilan misning kunlik tushishi 2-5 mg (0,031-0,039 mkmol) ga teng, agar bir sutkada organizmga 2 mg (0,031 mkmol) dan kam miqdorda mis tushsa, mistanqislik holati yuzaga kelishi xavfi tug'iladi. Bolalarda misga bo'lgan talab kattalarnikidan yuqori. O'sish davrida kuniga 3-7 mg mis sarf bo'ladi. Misning qon zardobida (0,5 mg/l yoki 7,9 mkmol dan kami, sochda (10-19 mg/g) kam bo'lishi mis tanqisligi diagnostikasida ahamiyatlidir (N.P. Shabalov, 2001; M.V.Kopitko i dr., 2000).

Mis asosan o'n ikki barmoq ichak va ingichka ichakda so'riladi. Ovqat bilan tushadigan misning 30% so'riladi.

Ko'krak suti va sun'iy ovqatlanishda misning yetarli darajada tushmasligini barvaqt qo'shimcha ovqatlantirish bilan, mikroelementlarga boy bo'lgan sharbatlar berish bilan qoplash mumkin.

Organizmida misning biologik roli turlicha. Mikroelement asosan modda almashinishda, qon ishlab chiqarishda va gemoglobin sintezida, to'qima nafas olishida, teri va soch pigmentatsiyasida, nerv impulslarini neyromediatorlar orqali o'tishini ta'minlashda, qalqonsimon bezi tiroksin gormoni, tayanch harakat sistema asosi bo'lmish qo'shuvchi to'qima ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Misning aniq bajaradigan vazifasi muhim ferment-oksidazalar (tsitoxromoksidaza va tirozinaza) va seruloplazmin tarkibiga kiradi. Seruloplazmin fermenti zardobda qariyb 90% mis saqlaydi, uning aktivligi stress holatlari va endokrin buzilishlarda oshadi. Mis o'sish va rivojlanish immunogenez va gemopoezga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Mis yetishmasligi hayvon va odamlarda kamqonlik chaqiradi. Aniqlanganki, misning yetarli miqdorda bo'lishi gemoglobin sintezi va eritrotsitlar rivojlanishini ta'minlaydi, temirning organik birikkan holga va uni suyak ko'migiga tashishda ishtirok etadi.

Organizmida mis tanqisligining asosiy belgilari: uning miqdorini qonda kamayishi, organlardagi mis zahirasining kamayishi, mis tutadigan oksidaz, shu jumladan seruloplazmin aktivligining pasayishidir (A.V.Skalniy, 2019). Misning chuqur tanqisligida chaqaloqlarda neytropeniya va gipoxrom kamqonlik, bo'y o'sishning kamayishi, teri va

soch depigmentatsiyasi, suyaklar hosil bo'lishi anomaliyalari, miokard fibrozi, teri eritemasi va shu kabi alomatlar kuzatilgan.

Organizmida mis yetishmasligi qon tomirlar destruktsiyasiga, suyaklarni patologik o'sishiga, qo'shuvchi to'qima o'zgarishlari rivojlanadi. Bundan tashqari keksa kishilarda mis tanqisligi rak kasalligi rivojlanishini chaqiradi. Mis tanqisligi bolalarda miyada kasallik chaqiradi(sindrom Menkesa), chunki miyada sitoxromoksidaza yetishmaydi.

Genetik gipo- va diskupreozlardan kichik bolalarda Vil'son-Konovalov, Marfan sindromi hamda Menkes sindromi mis almashinuvi buzilishi bilan kechib, soch rangining o'zgarishi, arteriya va skelat anomaliyalari, bosh miyada degenerativ o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. A.V.Skalniy(1999) ma'lumotlariga ko'ra mis tanqisligi Moskva shahrida har 100 tekshirilganlardan 50 dan 90 tagacha kuzatilgan, bolalarning turli kasalliklarida mis tanqisligi 45-48% ni tashkil etgan. T.I. Koganova va hammualliflari (2004) ma'lumotlari bo'yicha oshqozon-ichak kasalliklarida mis tanqislik 7,4%ni tashkil qilgan. Jumladan, bizning ma'lumotlarimizda mis tanqisligi maktab yoshidagi bolalar o'rtasida (Rasulov S.K., 2023) 48,2%, qishloq bolalari o'rtasida – 70,4% tashkil qildi. Mis tanqisligi oldini olish mahalliy aholi iste'mol qiladigan oziq ovqat tarkibida bo'lgan mis miqdoriga bog'lik. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mis miqdori kepakli nonda, qora mayizda, turshakda, sumalakda, no'xatda; hayvon maxsulotlaridan tuxum oqsili va mol go'shtida; o'simlik maxsulotlaridan yong'oqda, shinnida, o'rik danagida, olmada, no'xatda, guruchda, sabzavotlarda, quruq mevalarda juda ko'pligi aniqlandi.

Uzum sharbati tarkibida mis miqdori 1,00-9,00 mg%(Marx A.T. va b. 1957). Vinoda esa uning miqdori 1,3 mg/l ga teng. Mis miqdori mis qo'shib yasalgan idish va kranlar qo'llaganda oshadi.

Yod (I)

Sutkalik ehtiyoj: 0,2 mg atrofida. Qalqonsimon bez faoliyati uchun muhim, uning ishlab chiqaradigan gormonlari tarkibiga kiradi, bu gormonlar orqali butun organizm metabolizmini yog'lar, uglevodlarni parchalashni va energiya ishlab chiqarishni jonlantiradi; bosh miya, teri, soch va tishlar normal rivojlanishi uchun kerak bo'ladi.

Yod tanqisligi: qalqonsimon bez kattalashishi(endemik buqoq), odamning sust reaktivligi, kretinizm (yoshlik davrida yetishmovchilik

bo'lganda), modda almashinuvi va tana harorati pasayishi, teri qurishi, jismoniy va aqliy qobiliyat pasayishi bilan belgilanadi.

Yodning organizmga ortiqcha tushishi asosan allergik reaksiyalarga olib keladi. Yod preparatlarini uzoq muddat qo'llash va unga yuqori sezgirlikda bo'lish yodizmga olib kelishi mumkin, uning belgilari – tumov, allayergik toshmalar, Kvinka shishi, ko'z yoshi oqishidir.

Yod miqdori uzumda 0,25-0,30 mg/l, shirin vinoda 0,10-0,20 mg/l, yarimshirin vinoda -0,4-0,6 mg/lga teng.

Rux (Zn)

Rux aminokislotalar va oqsil sintezi uchun asosiy mineral hisoblanadi, organizm hamma hujayralari va fermentlari tarkibiga kiradi, insulinning uzoq muddat ta'sir qilishini ta'minlash bilan qonda qand miqdorini kamaytiradi. Rux qonda domiy kislotali-ishqorli muhitni saqlaydi, to'qima regeneratsiyasi uchun mas'ul, insulin hosil bo'lishini va mushaklar qisqarishini boshqaradi, prostata va ko'payish a'zolari faoliyatini normallashtiradi, erkaklik xususiyatini va qonning yallig'lanishga qarshi xususiyatini oshiradi. Shizofreniyani davolashda, yaralar bitishini tezlatishda, tirnoqlarda oq dog'larni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Rux ta'm yo'qolishi va hid buzilishida yordam beradi. Erkaklarda eng ko'p miqdorda rux prostata bezi va uning sekretida aniqlangan.

Organizmni rux elementi bilan ta'minlaydigan go'sht, tuxum, sut, kadi urug'i, pivo achitqisi, tok maxsulotlari va hakoazolardir. Rux elementi vitamin A, kaltsiy va fosfor bilan birgalikda yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Rux odam organizmi uchun eng zarur bo'lgan mikroelement bo'lib, 20 dan ortiq metalloferment tarkibiga kiradi, shulardan DNK-polimeraza va RNK-polimeraza, fosfataza, ko'mir angidraza va b. (M.P.Sheybak va b., 2010). Asosan hujayra ichi elementi(98%) hisoblanib, odam organizmida 1,4 dan 2,3 g tashkil qiladi; u mushaklarda, jigarda, suyak to'qqimasida, prostatada, ko'z olmasida bor. Rux umumiy miqdorining 2% ga yaqini qon zardobida bo'ladi. Odam organizmida ruxning 80% albumin bilan bog'langan holda, 15% - α -makroglobulin, hamda kam miqdorda – transferrin, past molekulyar zardob oqsili, aminokislotalar va metallofermentlar bilan bog'langan bo'ladi.

JSST(VOZ) ma'lumotlariga ko'ra ovqatlar bilan ruxning sutkalik iste'moli 15-20 mg dan kam bo'lmasligi kerak. Bolalarda 11 yoshgacha

sutkalik ovqat bilan ruxga talab 10 mg, kattalarda - 15 mg, xomilador va emizikli onalarda esa ko'p miqdorda (kuniga 20 dan 25 mg gacha) bo'lishi aniqlangan. Chaqaloqlarning ruxga talabi kuniga 0,1 mg/kg, chala tug'ilganlarda – 0,3 mg/kg (Rasulov S.K., 2009). Organizmdagi rux miqdori biosferadagi bo'lgan rux miqdori bilan to'g'ri korrelyativ bog'lanishga ega.

Rux organizmning ko'p funktsiyalariga ta'sir ko'rsatadi. U hujayralarning bo'linishini, o'sishi va rivojlanishini, T – hujayra immunitetini boshqaradi, ovqat hazm qilish sistemasi fermentlari va insulin sintezida, oqsil ishlab chiqarish, soch o'sishi va teri regeneratsiyasi uchun zarur. Rux yetishmasligi nerv va reproduktiv sistema yetilmay qolishiga olib keladi. Rux yetishmovchiligi ko'pincha temir tanqisligi bilan hamkorlikda keladi (E.A.Droke et al., 2006; J.A.Rico et al., 2006).

So'nggi 10 yilda olib borilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, xomilador ayollarda rux tanqisligi bolaning yetilmasdan tug'ilishiga hamda turli xil anomaliyalar rivojlanishiga olib keladi (A.E.Lavrova, 2000; Legonkova T.I., 2002; O.I.Pikuza, 2005; S.K.Lachat et al., 2006).

A.V.Skalniy (2019) bergan ma'lumotlar bo'yicha rux tanqisligining asosiy sabablariga oqsilning alimentar tanqisligi, mikroelementlar so'rilishining buzilishi, buyrak kasalliklari, glyukokortikoidlar va sitostatiklar bilan davolash, xomiladorlik, surunkali enterit, kolit, Kron kasalligi, surunkali gepatit va jigar sirrozi, psoriaz, nur bilan davolash, kaltsiy, mis, fitin, tetratsiklin, izoniazid preparatlarini katta dozada qo'llash, operatsiyadan keyingi holat, quyish, stress, alkogolizm va boshqalar kiradi. Rux tanqisligi bolalarda kattalarga nisbatan ko'proq uchraydi. Uning miqdori qon, eritrotsit hamda soch va siydikda aniqlanadi. Sog'lom bolalar qon zardobida rux miqdori 6,5-7,5 mkg/ml.

Rux tanqisligini soch tarkibidagi rux kontsentratsiyasiga qarab aniqlash mumkin: tug'ilganda sochda rux miqdori 204 mkg/g bo'lsa, 1 yoshga kelib 112 mkg/g gacha kamayadi. Ko'krak suti bilan oziqlantiriladigan bolalarda rux miqdori sun'iy ovqatlanadigan bolalarga nisbatan ko'p. Organizmda jami 2 g gacha rux (Zn) bor. Ruxning ko'p miqdori terlash bilan yo'qotiladi. Bolalarda rux tanqisligi alomatlari turlicha - dermatit, ekzema, furunkulez, sepkilli toshmalar, teri trofik yaralari, bolaning bo'y o'sishdan orqada qolishi, bola og'irligi va tana vaznini yetishmasligi (gipostatura rivojlanishi) va soch to'kilishi, karashlar, stomatit, gingivit, xeylit, ishtaha pasayishi, ta'm va hid

sezishning o'zgarishi, temir tanqislik kamqonligi, gepatosplenomegaliya, aqliy rivojlanishdan orqada qolish, jinsiy rivojlanishning buzilishi, o'g'il bolalarda gipogonadizm bilan kechadi (M.Mazariegos et al., 2006, Rasulov S.K., 2009; Skalniy A.V., 2017).

Postnatal davrda rux tanqisligi endogen(tug'ma, genetik), ekzogen (alimentar) va yatrogen sabablardan kelib chiqishi mumkin.

Rux tanqisligi holati qachonki, qonda rux miqdori 86 mkg/100 ml dan kam bo'lsa, agar qon zardobida $53,7 \pm 0,6$ mkg/ 100 ml dan pasaysa isbotlanadi, kasallik oqibati yomon bo'lishi mumkin. S.Xeyde va K.Xening(1967) bargan ma'lumotlarga ko'ra rux mikdori uzumda 9 dan 19 mg/l gacha. Chexiya vinosi tarkibida rux miqdori 0,2-0,8 mg/kg, boshqa vinolarda uning miqdori 0,45-5,6 mg/kg atrofida.

Marganets (Mn)

Sutkalik ehtiyoj: 3-5 mg. Antioksidant, aminokislotalar parchalanishi va energiya hosil bo'lishi, vitamin B₁, E metabolizmi uchun muhim bo'lgan element. Turli fermentlarni ovqat hazmi va sarf bo'lishini faollashtiradi, yog'lar va xolesterinni parchalash katalizatori hisoblanadi. Skelet normal rivojlanishini ta'minlaydi, jinsiy gormonlar ishlab chiqarish quvvatini oshiradi. Odam tanasida 10-20 g Mn bor.

Aniqlanganki, marganets fermentlar sintezida ishtirok etadi, gipofiz-buyrak usti sistemasini stimullaydi, hujayralarning glyukozaga to'yinishini kuchaytiradi, markaziy nerv sistemasi va reproduktiv organlar faoliyatini boshqaradi, Vitamin B va C ta'sirini oshiradi, qalqonsimon bez gormoni - tiroksin ishlab chiqarishda qatnashadi. Shu qatorda margants teri orqali qonga o'tib tabiiy gormonlar ishlab chiqarishda ishtirok etadi hamda teri va organizmni yosharishini ta'minlaydi. Marganets mushak reflekslarini, xotirani yaxshilash uchun foydali.

Marganets tanqisligi bizlar tomondan aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra maktab yoshidagi bolalar o'rtasida 57% ni, qishloq sharoitida yashovchi bolalarda esa 61% ni tashkil etadi.

Marganetsga boy bo'lgan maxsulotlarga bargli sabzavotlar, lavlagi, no'xat, dukkaklilar, yong'oq va tuxum sarig'i kiradi.

Marganets tanqisligi alomatlari: paralich, konvulsiya, bosh aylanish, eshitish qobiliyati pasayishi, bolalarda karlik va ko'rlik, ovqat hazmining buzilishi, xolesterin miqdori kamayishi, keyinchalik insulinga bog'liq bo'lgan diabet chaqirishi mumkin.

Marganets ko'payishi nerv sistemasi faoliyati buzilishini chaqiradi(parkinsonizm), temirni so'rilishini qiyinlashtiradi, kamqonlikka olib keladi.

Marganets tanqisligining oldini olish maqsadida bizlar tomondan mahalliy oziq ovqatlar tarkibida marganets miqdori o'rganildi. Eng ko'p miqdorda marganets tok maxsulotlarida (bu haqda quyida ma'lumotlar berildi), na'matakda, turshakda; hayvon maxsulotlaridan xalisa, mol go'shti, tuxum sarig'i va sutda o'rtacha miqdorda(Rasulov S.K., 2007). Marganets miqdori uzumning asosan mag'zida ko'p va turli qimlarida turlicha miqdorda mavjud: uzum mag'zida 0,68-0,84 mg/kg; po'stida 0,50-0,60 mg/kg; urug'ida 1,78 -2,04 mg/kg. Vino tarkibida marganets miqdori ko'pgina mualliflar aniqlashi bo'yicha har xil miqdor - 0,61dan 7 mg/l gacha aniqlangan.

Kobalt (Co)

Kobalt - vitamin B₁₂ mineral qismini tashkil etadi, zahiradagi temirni gemoglobin tarkibiga o'tishni ta'minlaydi, eritrotsitlar hosil bo'lishini, yetilgan eritrotsitlarni periferik qonga o'tishini stimullaydi. Ovqat bilan kuniga – 0,005-1,5 mg (14-78 mkg) kobalt iste'mol qilinadi, kantserogen xususiyatga ega, toksik dozasi – 500 mg, katta odam organizmida (70 kg vaznda) – 14 mg atrofida bo'ladi.

Hozirgi vaqtda kobalt tanqisligi 26 mamlakatda, shu jumladan O'zbekistonda ham, aniqlangani yozilgan. Rossiyada, A.V.Skalniy bo'yicha kobalt tanqisligi bolalar o'rtasida 45% ga teng. Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra kobalt tanqisligi maktab yoshidagi bolalarda 61%, shundan 82% qishloq sharoitida yashovchi bolalarda aniqlandi. Kobalt odam organizmi uchun muhim bo'lgan mikroelement sanaladi, u fiziologik jihatdan yuqori aktivlikka ega, qon ishlab chiqarish va modda almashinuviga ta'sir qiladi. Kobalt toksik moddalarning ikkinchi guruhiga mansub va kuchli sensibilizatsiyalovchi xususiyatga ega. Kasbiy ish paytida kobaltning organizmga tushishi allergik kasallik, kardiomiopatiya va nafas a'zolari kasalliklari chaqiradi. Kobaltning asosiy funktsiyasi uning vitamin B₁₂ (tsianokobalamin) tarkibida bo'lishi va uning tanqisligi ham shu vitamin tanqisligi bilan bir xil(Ordjonikidze E.K. va b., 1989; Popova I.Yu. va b.,1996). Kobalt odam va hayvonlarda boshqa biometallarga nisbatan yaxshi o'zlashtiriladi. Odam ovqat tarkibida

bo'lgan kobaltning 20% dan 95%gacha o'zlashtiradi(Avtsin A.P. va b., 1991).

Odam organizmiga kunida 0,25 mg/kg dan to 0,69 mg/kg gacha kobalt ovqat bilan tushadi, suv bilan 10 mkg gacha, iste'mol qilinadigan kobaltning 90% ni o'simliklar bilan tushadi.

Bolalarda kobaltning qon zardobidagi miqdori 0,07 mg/l., qon elementlarida - $0,019 \pm 0,002$ mg/l ga teng (Nasolodin V.V., 1987). Bizning bergan normativlar bo'yicha bolalarda kobaltning qon zardobidagi miqdori $0,08 \pm 0,03$ mg/l., so'lakda - $2,7 \pm 1,2$ mg/l.

Kobaltga boy bo'lgan mahsulotlar - jigar, dukkaklilar, chesnok, go'sht, sut, baliq, lavlagi, ko'katlar, petrushka, malina, qora smorodina, grechka, tuxum va b. (Skalniy A.V.,1999). Bizning ma'lumotlarga ko'ra kobalt ko'p miqdorda tok mahsulotlarida, turshakda, do'lanada mavjud.

Selen (Se)

Selen so'nggi yillarda ko'pchilik tadqiqotchi olimlarni qiziqtirib kelmoqda, u glyutation peroksidaza va boshqa fermentlar tarkibiga kiradigan odam organizmi uchun muhim sanalgan mikroelement. Selen kuchli biologik aktiv ta'siriga ega bo'lgan antioksidant.

Selenning oziq-ovqatdagi miqdori uning tuproq tarkibidagi miqdoriga bog'liq. Rossiya va bir qator Osiyo mamlaktlari (Xitoy, Koreya va b.) selen yetishmaslik xududlariga kiradi.

Se sutkalik ehtiyoji - 20-100 mkg. Selen organizmning yurak-tomir kasalliklarga(kardiomiopatiya), onkologik kasalliklarga chidamliligini oshirishda, terida qon aylanishni yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Selen ayniqsa vitamin E va b-karotin bilan hamkorlikda antioksidant xususiyatga ega. Selen to'qimalarni elastikligini saqlashda yordam beradi, sochda qayazg'oqni oldini oladi.

Selenga boy mahsulotlar: piyoz, pomidor, kepak, ayniqsa bug'doy kepagi, baliq. Selen tanqisligi biologik aktiv moddalar bilan birga, vitamin B berish bilan bartaraf etiladi.

Selen yetishmasligini qo'l va yuzda qizil dog'lar paydo bo'lishi bilan aniqlash mumkin. Ovqat miqdorida selen yetishmaganda organizmda quyidagi belgilar paydo bo'ladi: immunitet pasayishi, shamollash kasalliklariga tez chalinish, jigar funktsiyasini pasayishi, kardiopatiya; teri, soch va tirnoq kasalliklari; katarakta; bo'y o'sishning orqada qolishi; o'pka surfaktant sistemasining yetishmasligi. Selen tanqisligi bilan bolalarni "beshik" ("kolibelnoe") o'limi o'rtasida o'zaro bog'liqlik

mavjudligi qayd etilgan. Selennig organizmda yetishmasligi toksik elementlardan margumush, kadmiy, simobning to'planishini chaqiradi. Selenni ko'p iste'mol qilish (5 mg/kg dan ko'p) toksik reaksiya chaqirishi mumkin. Selen – margumush va simobning antagonisti, bu moddalardan organizmni himoya qiladi.

Bolalarda mikroelementozlarning klinik tasnifi

Mikroelementozning nozologik birligi "mikroelementlar" tushunchasidan kelib chiqadi. A.I. Perelmanning so'zlariga ko'ra (1979), "mikroelementlar" atamasi organizmlar to'qimalarida juda oz miqdorda 0,01% yoki undan kam bo'lgan elementlarni bildiradi, B. Mason bo'yicha (1971) - $<0,05\%$, V.V. Dobrovolskiy (1983) - $<0,1\%$, A.P.Avtsyn va A.A. Javoronkov (1983) – 0,001 (10⁻³ - 10⁻¹²%) va foizdan kam (A.N. Guseinov, 1989). Akademik A.P.Avtsyn va boshqalar. (1991) ilmiy tibbiyotda qo'llaniladigan mikroelementozlarning ishchi tasnifini ishlab chiqdi. A.P.Avtsyn tomonidan kiritilgan terminologiyaga ko'ra, quyidagilar ajralib turadi: monomikroelementoz sindromi va polimikroelementoz sindromi. A.P.Avtsynning tasnifi biogeokimyoviy tabiatdagi kasalliklarning kelib chiqishi va shakllanish mexanizmi to'g'risidagi prinsipial muhim pozitsiyani aks ettiradi. Biroq, bu tasnif umumiy etiopatogenetik printsiplarga asoslanadi, shuning uchun u amaliy pediatriyada qo'llash uchun yetarli emas;

Shundan kelib chiqib, ishning maqsadi - pediatriya va boshqa tibbiyot fanlarida foydalanish uchun mo'ljallangan mikroelementozlarning klinik tasnifini ishlab chiqish. Bizlar(Rasulov S.K. va b., 2005) turli yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan mikroelementozlarning quyidagi klinik tasnifini ishlab chiqdik va taklif qildik, bu haqda O'zbekiston gematologlari va transfuziologlarining 1-Kongressida ma'lum qilindi (uslubiy tavsiyalar va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan axborot xati olindi).

Bolalarda mikroelementozning (MEtoz) klinik tasnifi:

- Nozologik birlik:
 1. GipoMEtoz,
 2. GiperMEtoz,
 3. DisMEtoz,
 4. MonoMEtoz,

5. PoliMEtoz,
6. Kasallik, sindrom, holat.

➤ Etiologik stimullar:

1. Aniqlanmagan,
2. Belgilangan:
 - 2.1 Endogen: a) tug'ma, b) irsiy, c) orttirilgan (birlamchi, ikkilamchi),
 - 2.2 ekzogen: a) alimentar, b) tabiiy, v) texnogen (qo'shni, transgressiv),
 - 2.3. Yatrogen

➤ Kechishi:

- 1.O'tkir,
2. Surunkali, bosqichlari: a) prelatent, b) yashirin, v) manifest.

➤ Og'irligi: engil, o'rtacha, og'ir

Asoratlari: 1. Asoratlanmagan, 2. Asoratli: a) mahalliy (teri, epiteliy), b) tizimli (gematopoetik, psixonevrologik, endokrin, nafas olish va boshqalarni o'z ichiga oladi).

Misollar: 1) Temir tanqisligi MEtozi (oziqlanish etiologiyasi). Surunkali kechishi, namoyon bo'lish bosqichi - anemiya. O'rtacha daraja. Gematopoetik funktsiyaning buzilishi.

2) Mis tanqisligi MEtozi, aniqlanmagan etiologiyasi. Surunkali yashirin kechishi (laboratoriya tomonidan tasdiqlangan), klinik ko'rinishlar va asoratlarsiz.

3).Sink tanqisligi MEtozi ("Enteropatik Akrodermatit sindromi"). Endogen etiologiya (ikkilamchi). Surunkali kechishi. Og'ir shakli. Asoratlari - tizimli buzilishlar.

4). Kaltsiy etishmovchiligi MEtozi. Oziqlanish buzilishi etiologiyali. O'tkir kechishi, og'ir shakli. Asorati - konvulsiv sindrom.

Taklif etilgan tasnif bir qator afzalliklarga ega: uni pediatriya amaliyotida qo'llash imkoniyati, xususan - bolalar gematologiyasi, neonatologiya, endokrinologiya, gastroenterologiya, nefrologiya, nevrologiya va boshqa fanlar; hududlarning tibbiy-ekologik holatini baholash va ijtimoiy-gigiyena monitoringini o'tkazish.

Bizlar ishlab chiqqan bolalarda mikroelementozlarning klinik tasnifi asosiy mikroelementlar (temir, rux, mis va boshqalar) etishmovchiligining klinik va gematologik xususiyatlarini aniqlashga, shuningdek, diagnostika va profilaktika ishlarining samaradorligini aniqlashga imkon beradi, makro va mikroelementlarning etishmasligi, nomutanosibligi va ortiqcha holatlarini diagnostikasida qo'llaniladi .

II-BOB. MAXSUS QISM

ONA VA BOLA BIOMUHITLAGIDA MIKROELEMENTLAR MIQDORI

Ko'krak suti tarkibidagi makro- va mikroelementlarni o'rganish

Samarqand viloyatining turli hududlarida yashovchi emizikli onalarning ko'krak sutidagi makro- va mikroelementlarni aniqlash uchun 20 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan emizikli onalardan olingan 53 ta sut namunalari tekshirildi. Namunalar tahlili Samarqand davlat universiteti laboratoriyasida atom absorbsiyasi usuli bilan tekshirildi.

Sutning tarkibi laktatsiya fazasiga, onaning yoshiga, ovqatlanish turi, yashash joyiga va boshqalarga bog'liq. Darhaqiqat, ushbu ma'lumotlarga ko'ra, aksariyat elementlarning inson tanasida tarqalishi muhim bolib, ko'krak suti va sochi tarkibidagi elementlarning normativ ko'rsatkichlari Samarqand viloyatida ishlab chiqilmagan, yoki ma'lumotlar etarli emas. Shundan kelib chiqib, tadqiqotdan olingan natijalar asosida olingan o'rtacha qiymatni ushbu hudud uchun normativ miqdor sifatida qabul qilish mumkin bo'ladi.

Tadqiqotlarimizdan olingan natijalar bizning hududda ilk bor o'tkasilayotganligini inobatga olib, normativ ko'rsatkichlarni JSST va Rossiyada o'tkazilgan tadqiqotlar bilan qiyosiy jihatdan taqqoslandi.

Samarqand viloyatining turli hududlaridagi emizikli sog'lom ayollar sutidagi mikroelementlar miqdorini o'rganish natijasida makro- va mikroelementlar qiymatlari aniqlandi (1-jadval).

**Ko'krak suti laktatsiya davrida makro - va mikroelementlar miqdorining
qiyosiy ko'rsatgichi (n=53)**

Element	Bizning ma'lumotlar		Skalniy A.V., 2012, mg/l
	M±m(mg/l)	Min-max(mg/l)	
Mis	0,64±0,05	0,20-1,24	-
Rux	2,8±0,2	0,5-6,36	0,75-4
Temir	32,8±1,81	11,21-74,76	9,0-30,4
Kaltsiy	151±4,54	99,8-222,2	150-481
Marganes	1±0,001	0,10-2,20	-
Magniy	31,7±1,72	10,6-63,5	0,66-1,07
Natriy	357,7±15,3	160-666,6	400
Kaliy	348,2±21,13	118,9-666,7	3,5-6,1

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ko'krak sutida rux miqdori o'rtacha $2,8 \pm 0,2$ mg/l ni tashkil qiladi. Yashash joyining biogeokimyoviy sharoitlari va oziq-ovqat, suv va havo bilan kimyoviy elementlarni iste'mol qilishning individual xususiyatlariga bog'liq holda, ruxning konsentratsiyasi o'zgarishi mumkin. Shunday qilib, ko'krak sutidagi minimal rux miqdori 0,5 mg /l, maksimal 6,36 mg /lni tashkil qiladi. Voyaga etgan bola uchun ruxga bo'lgan ehtiyoj kuniga 15-20 mg, go'daklar va erta yoshdagi bolalarda o'rtacha -0,3-0,5 mg/g ni tashkil qiladi.

Emizikli ayollarning ko'krak sutidagi mis miqdori o'rtacha $0,64 \pm 0,05$ mg/l ni tashkil qiladi, tebranishlari 0,20 dan 1,24 mg/l gacha, sutdagi temir konsentratsiyasi $32,8 \pm 1,81$ mg/l, tebranishlari 11,21 mg/l dan 74,76 mg/lga cha. Bizning ma'lumotlarimiz Toshkent viloyatida olib borilgan Sh.T. Ismoilovning ma'lumotlaridan biroz farq qilib, uning ma'lumotlariga ko'ra, ko'krak sutidagi temirning konsentratsiyasi 15,25 mg/gni tashkil qiladi. Ushbu farq biogeokimyoviy xususiyatlar bilan bog'liq.

Ma'lumotlarimizga ko'ra ko'krak sutidagi kaltsiy miqdori o'rtacha 99,8 mg/l dan 222,2 mg/l gacha o'zgarib, o'rtacha $151 \pm 4,54$ mg/l ni tashkil etdi. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, ko'krak sutida o'rtacha $1,0 \pm 0,001$ mg/l marganes mavjud bo'lib, tebranishlari 0,10 mg /l dan 2,20 mg/l gacha.

Ko'krak sutidagi magniy miqdori o'rtacha $31,7 \pm 1,72$ mg/l ni tashkil qildi, tebranishlar bilan: 10,6 mg/l dan 63,5 mg/l gacha. Bizning

ma'lumotlarga ko'ra, ko'krak sutidagi natriy miqdori 160,0 mg/ldan 666,6 mg/lgacha, o'rtacha $357,7 \pm 15,3$ mg/l. Ko'krak sutidagi kaliy miqdori 118,9 mg/ldan 666,7 mg/lgacha, o'rtacha $348,2 \pm 21,13$ mg/lni tashkil qiladi.

Ko'krak sutining elementlar miqdori qiyosiy taxlili shuni ko'rsatdiki, Rossiyada olingan ma'lumotlarga nisbatan (Skalniy A.V. va b., 2012) ayrim elementlarda farq mavjud, jumladan, temir miqdori - 1,5 marta, magniy – 30 marta, kaliy esa 70 marta bizning ma'lumotlarda yuqoriligi aniqlandi, boshqa elementlarda farq deyarli yo'q. Ko'rsatkichlarning bu darajada farq qilishi birinchidan tekshirish usuliga bog'liq – bunda Skalniy A, V. v ab. tomonidan elementlar miqdori atom-absorbsiya spectral taxlili usulida tadqiqotlar olib borilgan bo'sa, bizlar esa neytron faollashtiruv usulidan foydalandik. Ikkinchidan, ko'krak sutining elementlar tarkibi har bir biogeokimyuviy hududga mos ravishda farq qilishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, ko'krak sutining ko'p elementli tahlilidan olingan natijalar Samarqand viloyatida yashovchi sog'lom onalar uchun normal ko'rsatkich sifatida tavsiya etiladi

Shunday qilib, ko'krak sutining ko'p elementli tahlilini ta'minlash bir yoki ikkita elementning ta'rifi nisbatan inkor etilmaydigan afzalliklarga ega, chunki u elementlarning bir-biriga bog'liqligini va o'zaro ta'sirini hisobga oladi, shuningdek, mikroelementlar yetishmasligi belgilari onada mavjud bo'lsa, go'dakning sog'lomlik holatini baholashda va korreksiyalash choralarni olib borishda samarali usul bo'lib xizmat qiladi.

Emizuvchi ayol suti tarkibidagi mikroelementning ona salomatligiga uzviy bog'liqligi

So'nggi paytlarda organizmdagi mikroelementlar almashinuvi holatini aniqlash uchun ona suti tahlilini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda (Danilova E.A. va boshq., 2015). Shu munosabat bilan adabiyotlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, ona suti tarkibidagi mikroelementlar butun organizmning mikroelement holatini aks ettiradi va ona suti namunalari mineralning ajralmas ko'rsatkichi hisoblanadi. Ko'p jihatdan ona suti "Ona-bola" tizimida tadqiqotlar o'tqazish uchun qulay materialdir. JSST/YUNISEFning yaqinda chop etilgan nashrida bu masalaga munosabat quyidagicha aks ettirilgan: ko'krak suti bilan boqish reproduktiv jarayonning ajralmas qismi, bolani oziqlantirishning tabiiy va ideal usuli, bola rivojlanishining o'ziga xos biologik asosidir.

Ko'krak bilan emizish bolada infeksiyalarning oldini olish, onalar salomatligiga, bolaning rivojlanishiga, oila salomatligiga, milliy va oila byudjetiga ijobiy ta'sir qiladi, bu esa sog'liqni saqlash va jamiyatning zamonaviy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichidir. Shuning uchun bolalarni emizishni qo'llab-quvvatlash va homilador ayollar va emizikli onalarni har qanday zararli ta'sirlardan himoya qilish uchun javobgarlik jamiyat zimmasiga yuklanadi "(R.M. Parr) Adabiyotga ko'ra, Rossiya aholisining 30% dan 90% gacha va Samarqand viloyati maktab o'quvchilari orasida 40% dan 70% gacha mikroelementlar almashinuvi buzilishlari uchraydi (Skalniy A.V., 2001., Rasulov S.K., 2007). Hozirgi kunda fan bolalarning o'sishi va rivojlanishidagi buzilishlar sabablarini aniqlash hamda chaqaloqlarni oziqlantirishning yangi texnologiyalarini aniqlash boy'icha izlanishlar olib bormoqda.

Ona sutini (MM) muhim biologik muhit bo'lib, bu esa bola hayotining birinchi yillarini va kelajakdagi salomatligini belgilaydi deb hisoblash mumkin, bu hududning geokimyoviy xususiyatlariga bog'liq bo'lib (Scheplyagina L.A., 2009; Chumbadze T.R., 2009).

Zamonaviy adabiyotlarda laktatsiya davrida ona - ona suti - bola tizimida essensial elementlar (EE), shartli essensial elementlar (SHEE) va toksik elementlarning tarkibi (TE), ona sutida elementlarning kontsentratsiyasi o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Zararli omillarning ona sutiga salbiy ta'sirini kamaytiradigan va uning tarkibini muvozanatlashtiradigan ma'lumotlar to'plangan (Sannikova N.E. va b., 2007; Kondratyeva E.I., va b., 2007). Bularning barchasi ona - ona suti - bola tizimidagi kimyoviy elementlarning nomutanositligining salbiy oqibatlarini to'liq tahlil qilish va tuzatish choralarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Ushbu ishning maqsadi onaning sog'lig'iga va yashash joyining biogeokimyoviy sharoitlariga, kasallanishining bilvosita bog'liqligini aniqlash uchun ona sutidagi mikroelementlarning tarkibini o'rganishdir. Maqsadni amalga oshirishda chaqaloqning sog'lig'ini har tomonlama baholash standart mezonlarga muvofiq hayotning 3, 6, 9, 12 oyligida o'tkazildi. Ontogenetik rivojlanish genetik, biologik, ijtimoiy anamnezning og'irligi bilan baholandi.

Tadqiqot 2 bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda 400 nafar ona va 400 nafar bola ko'rikdan o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatining turli tumanlarida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan anketa usuli bo'yicha ayollar va bolalarni tekshirish o'tkazildi.

"Ona-bola" tizimida makro- va mikroelementlarning mavjudligini tavsiflash uchun ona sutidagi mikroelementlarning tarkibi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. Ona sutining mikroelementlar tarkibini o'rganish ikki usul bilan amalga oshirildi: atom-absorbsion va neytronlarni faollashtirish bo'lib ona suti tarkibidagi mikroelementlar miqdorining me'yoriy ko'rsatkichlari ikki usul bo'yicha tekshirildi, atom absorbsion analizi (AAA) Samarqand davlat universiteti laboratoriyasida va neytron faollashuv tahlili (NFT) esa O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining faollashtirish laboratoriyasida o'tqazildi. 20 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan emizikli onalarning ona sutidan olingan 53 ta namuna AAA usuli yordamida mis, rux, temir, kaltsiy, marganets, magniy, natriy, kaliy miqdorini aniqlandi. Samarqand viloyatining turli tumanlarida yashovchi 16 nafar emizikli ayollarda ona sutidagi 22 ta elementning miqdori neytron faollashuv tahlili NFT usulida o'rganildi. Chaqaloqlarning salomatlik holatini kompleks baholash, ularning onalarining sog'lig'i holatini anketa orqali baholash bilan birgalikda amalga oshirildi. Anketa 400 nafar onalarda to'ldirildi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 67,9% homiladorlik davrida kamqonlikdan, 64,2% toksikozdan, 27,3% homiladorlik davrida tushish xavfi, 25,5% yuqori qon bosimidan, 50,9% yallig'lanish kasalliklaridan, onalarda surunkali kasalliklar - 19,4% aniqlandi. Emizikli onalarning ovqatlanishida quyidagilar aniqlandi: don va dukkakli ekinlardan - 61,2%; sabzavotlar, mevalar va ko'katlar - 60%; sut va sut mahsulotlari - 55,8%; go'sht va go'sht mahsulotlari - 60,6%; baliq mahsulotlari - 75,6% foydalanilgan. Ko'pchilik 85,7% onalar tez-tez shirinliklarni (navat, shakar), choyni istemol qilish - 91-100% ni tashkil qiladi. 44,2% ayollarda oilaning ijtimoiy ta'minoti yetarli emasligi, 52,1% so'rovda qatnashgan onalar esa sog'lom va kasal bolani parvarishi bo'yicha ma'lumotga ega emasligi aniqlandi.

Bolalarning salomatlik holatini har tomonlama baholash shuni ko'rsatdiki: 21,8% bolalarning yig'isi pastligi, bolaning ona ko'krigiga kech biriktirilishi - 61,8%, bolalarga qo'shimcha ovqatlarni erta kiritish - 37%, tez-tez kasal bo'lganlar - 35,8 %, funktsional ichak buzilishlari - 35,7%, allergik toshmalar - 25,5%, raxit belgilari - 52%, og'iz burchaklaridagi yoriqlar - 31,5%, asossiz yig'lash - 32,7%, tirishish - 34,5%, talvasalar - 4,8%. , anemiya belgilari - 13,9% bolalarda aniqlandi. Oziqlanish, parvarish qilish qoidalarining buzishilishi - bolalarda 40 dan 50% gacha, mikroelementlar yetishmasligi xavf guruhi

- 57%, o'rtacha xavf guruhi - 35% va yuqori xavf guruhi - 8% bolalarni tashkil qiladi. Mikronutrient tanqisligi xavfi yuqori bo'lgan bolalar 9 oydan 12 oygacha bo'lgan davrda juda yuqori bo'lib, 62,5% ni tashkil qiladi, o'rtacha xavfli bolalar esa 6-9 oylik (37,1%) va minimal xavf ostida hayotning dastlabki 6 oyi hisoblanadi. Hayotning ikkinchi yarmida bolalarning sog'lig'iga yuqori xavf tug'diradigan bu bolaning o'sishi jarayonida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan mikroelementlarning yetarli darajada ta'minlanmaganligi bilan izohlanishi mumkin ya'ni mikroelementlarning nomutanosibligi bilan profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlarini amalga oshirish.

Shunday qilib, onalar so'roviga ko'ra, xavf guruhlari aniqlandi - dismikroelementozning ko'plab belgilarining mavjudligi, bolalarning psixomotor va jismoniy rivojlanishida kechikish, buning sababi onaning muvozanatsiz ovqatlanishi, madaniyatning pastligi, ovqatlanish, parvarish qilish qoidalarining buzilishidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ratsional ovqatlanish, nafaqat oqsillar, yog'lar, uglevodlar va vitaminlar, balki makro va mikroelementlarga boy bo'lgan ovqatlarni istemol qilish bolalarning optimal rivojlanishini, ko'plab organlar va tizimlarning ishlashini, normal metabolik va immunologik reaksiyalarni ta'minlaydi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish mikronutrient yetishmovchiligini hisobga olgan holda ona va bola salomatligi holatini birlamchi tibbiy-sanitariya yordamidan tortib, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishgacha har tomonlama baholashdan iborat, balki ijtimoiy, ekologik va boshqa muammolarni keyinchalik xavf guruhlari profilaktika choralarini ishlab chiqish bilan hal qilish imkonini beradi.

Adabiyotlarda bolalarni boqish uchun mo'ljallangan ona sutining mikroelementlar tarkibi haqida kam ma'lumotlar mavjud. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning tug'ruqdan keyingi hayotining birinchi haftalari va oylarida noto'g'ri ovqatlanish mikronutrientlarning yetishmasligi va keyingi jismoniy va asab ruhiy rivojlanishining kechikishining sabablaridan biri bo'lishi mumkin. Emizikli onaning ko'krak suti kimyoviy tarkibining barqarorligi uning normal ishlashi uchun eng muhim va majburiy shartlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Barcha kimyoviy elementlar tanaga asosan o'simlik va hayvonlarning oziq-ovqatlari va ichimlik suvi bilan kiradi. Elementlar

chaqaloqning tanasiga ona suti, suv va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan kiradi. Ma'lumki, hayotning birinchi oylarida bolalar uchun mikroelementlarning optimal manbai ona sutidir, chunki bu mikroelementlar eng samarali tarzda so'riladi (R.Michaelsen va boshqalar, 1994), 2-jadvalda kattalarning ehtiyoji ko'rsatilgan (A.V. Skalniy, 2000).

Abiogen elementlar hayvonlar metabolizmda o'z o'rnini egalladi, chunki ularning reaktivligi past, litosferada keng tarqalishiga qaramay, ular dengiz organizmlari shakllarining metabolizmda ishtirok etadi, bu ularning quruqlikdagi turlarining metabolizmidagi keyingi raqobatini aniqlashga yordam beradi. (patologiyaga olib keladi).). Abiogen elementlardan rubidium oziq-ovqatlarda eng yuqori konsentratsiyada topilgan, uni muhim mikroelementlarga yaqinroq deb hisoblash mumkin. Breyin elementlari, sutemizuvchilarda miya impulslarini o'tkazishda ishtirok etadi, bu elementlarning bolalar organizmidagi funktsional roli o'rganilmagan, ehtimol ular organizmda metabolik jarayonlarda ishtirok etadilar [Bgatov A.V., 1999].

Bu mahalliy floraning oziq-ovqat mahsulotlarining ona va bolaning tanasi uchun zararsizligini ko'rsatadi. Metil simob bilan zaharlanishning klinik ko'rinishi eng ko'p o'rganilgan.

Zarafshon vodiysi hududida yetishtiriladigan uzum g'o'robi tarkibidagi abiogen va zaharli elementlarni tahlil qilganimizda, tarkibida simob va skandiy kabi zaharli elementlarning juda past darajada ekanligini aniqladik, bu esa ushbu mahsulotning xavfsizligi va zararsizligidan dalolat beradi.

SanPIN talablariga muvofiq foydalanishga yaroqliligini aniqlash uchun uzum g'o'robi tarkibidagi radionuklidlar, bakteriologik tadqiqotlar, zaharli moddalar va pestitsidlar o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sanitariya-epidemiologiya laboratoriyasi quyidagi xulosani beradi:

1. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Cs-137, Sr-90 radionuklidlari tavsiya etilgan me'yor doirasida va SanPiN O'zR № 0366-19 No 3, 44-son talablariga to'liq javob beradi.

2. Xulosa SanPiN RUz, No 0366-19: qabul qilingan sana 01.08.2020 Uzum g'o'robida - umumiy mikroblar MAFAM CFU 1.0 GOST 10444.15-

94 $-4,6 \times 10^{-2}$ (norma - 5×10^{-3}); BGKP GOST 31747-2012 - aniqlanmagan; Kasallik qo'zg'atuvchi patogen flora, shu jumladan. Salmonellalar 25.0 GOST 31659-2012 da - aniqlanmagan; Zamburug' 1.0 GOST 10444.2-2013 da CFU aniqlanmadi.

3. SanPiN RUz talablariga javob beradigan uzum g'o'robi zaharli elementlar, shaxsiy yorlig'i, pestitsidlar tarkibi: SanPiN 0366-19 GOST 26929-94 GOST 26927-26130-26334-86 xulosa: Uzum g'o'robi – SanPin0366-19 talablariga javob beradi. (bayonnoma No0211-12 /03 1-2, 2020 yil 15 yanvar).

Xulosa:

1. Uzum g'o'robida kaltsiy, natriy, xlor, kaliy, magniyning yuqori konsentratsiyasining organik tuzlari mavjud - (21120 mkg / g, 12540 mkg / g, 662770 mkg / g, 15257, g / g gacha). Shu nuqtai nazardan, uzum g'o'robi profilaktika va qo'shimcha ovqatlar shaklida laktatsiya davridagi ayollar va 1 yoshdan oshgan bolalar uchun ushbu elementlarning yetishmasligini tuzatish sifatida tavsiya etilishi mumkin.

2. Muhim mikroelementlardan temir va marganets uzum g'o'robining eng yuqori konsentratsiyasini o'z ichiga oladi (mos ravishda 3566 mkg/g, 210 mkg/g gacha), bunday miqdor o'simliklardagi standart namunadagidan bir necha baravar yuqori. Uzum g'o'robida molibden, rux, kobalt va xrom o'rtacha konsentratsiyalarda (mos ravishda 56 mkg/g, 25 mkg/g, 21 mkg/g va 10,5 mkg/g gacha), selen va yod past konsentratsiyalarda topilgan (01 mkg/g gacha). Shu nuqtai nazardan, uzum g'o'robini gipomikroelemental sharoitlar uchun terapevtik va profilaktik biosubstrat sifatida ishonch bilan tavsiya qilish mumkin.

1. Zarafshon vodiysi hududida yetishtiriladigan uzum g'o'robi tarkibidagi abiogen va zaharli elementlarni tahlil qilishda simob va skandiy kabi zaharli elementlarning juda past darajada ekanligini aniqladik bu esa mahsulotning xavfsizligi va zararsizligini ko'rsatadi.

1. SanPiN talablariga muvofiq foydalanishga yaroqliligini aniqlash uchun uzum g'o'robi tarkibidagi radionuklidlar, bakteriologik tadqiqotlar, zaharli moddalar va pestitsidlar o'rganildi, bu uzum g'o'robi O'zbekiston Respublikasi SanPiN talablariga to'liq javob berishini ko'rsatdi.

1. Mikroelementlar tanqisligini tuzatish va oldini olish, bolalarning o'sishi va rivojlanishini optimallashtirish, shuningdek, kam o'rganilgan va kam qo'llaniladigan milliy mahsulot - mikronutrientlarning yuqori konsentratsiyasini o'z ichiga olgan uzum g'o'robidan foydalangan holda ozuqaviy va mikroelementlarni qo'llab-quvvatlash tavsiya etilishi kerak. Organizmning mikronutrient holati va uning funktsiyalari, tiklanish

jarayonlarini tezlashtirish va ona-bola tizimidagi hayot sifatini yaxshilashdan iborat.

Tabiiy milliy taom sumalakning mikroelement tarkibi va axamiyati

Ishning maqsadi - bolalar va kattalarda mikronutriyentlar yetishmasligini oldini olishda milliy tabiiy taomlardan sumalakning makro- va mikroelement tarkibini o'rganish orqali tavsiyalar ishlab chiqish.

Material va uslublar. Sumalak tarkibida makro- va mikroelementlar miqdori neytron aktivatsion usulda tekshirildi.

Olingan natijalar va muxokama. Sumalakda makro – va mikroelementlar miqdori quyidagicha aniqlandi: xlor- 4950 mkg/g, natriy – 860 mkg/g dan yuqori. Ko'rinib turibdiki, sumalakni tayyorlashda tuz qo'shilmasada unda xlor va natriy elementi ko'p. Sumalakda xlor elementi juda ko'p miqdorda bo'lganligi bois, uni oshqozon shirasi me'yordan ko'p bo'lgan kishilarga va oshqozon yarasi bo'lgan bemorlarga tavsiya etib bo'lmaydi, agarda bunday kishilar sumalakni yoqtirsalar, unda sumalakni sariyog bilan qo'shib iste'mol qilishlari mumkin. Makroelementlardan sumalakda kal'tsiy-1185 mkg/g ni tashkil etadi, bu esa kal'tsiyga ehtiyoji oshgan kishilar va bolalar uchun foydalidir, bular: o'sish davridagi bolalar va o'smirlar, homilador va emizuvchi ayollar, osteoxondrozi bo'lgan bemorlardir. Organizm o'sish va rivojlanishi uchun eng zarur (essentsial) mikroelementlar miqdori (mkg/g yoki mg/kg larda) sumalakda quyidagicha: temir- 63 mkg/g; mis- 36 mkg/g, rux-31 mkg/kg, marganets -15 mkg/g, brom -2 mkg/g, selen - 0,27 mkg/g, xrom- 0,023 mkg/g, skandiy-0,023 mkg/g, rubidiy-1,3 mkg/g, kobal't-0,05 mkg/g. Ko'rinib turibdiki, sumalak tarkibi minerallarga boy, ayniqsa sumalakda temir mis, rux, marganets, selen va kobal't miqdori yuqori. Sumalakda organizm uchun eng zarur mikroelementlardan temir, rux, marganets, kobal't, selen miqdori non mahsulotlarida mavjud mikroelementlarga nisbatan 1,5-3 barobar ko'pdir. Ayniqsa rux miqdorining ko'pligi immunitetni mustahkamlaydi va organizmni kasallikka qarshi kurashish qobiliyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Brom elementi asabni tinchlantirishda yaxshi samara beradi. Shundan kelib chiqib, sumalak to'yimli ovqat sifatida va mikroelementlarga boyligini hisobga olgan holda mikroelementlar yetishmovchiligi bilan bog'liq kasalliklarda, darmonsizlikda va boshqa

bir qancha xastaliklarda tavsiya etish mumkin. Shunga amal qilish lozimki, sumalak to'yimli ovqat bo'lganligi uchun faqat o'zini yoki shirinliklar, sutli mahsulotlar bilan birga iste'mol qilgan ma'qul, go'shtli va yog'li ovqatlar bilan tanovul qilish oshqozon faoliyatiga nojuya ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qon ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi mikroelementlardan mis, marganets, temir, rux, kobalt miqdori sumalakda ko'pligi sababli uni barcha turdagi kamqonliklarda va qon kasalliklarida tavsiya etish uchun asos bo'ladi. Shu qatorda sumalakni surunkali oshqozon kasalliklarining oshqozon shirasi kamayishi bilan kechadigan turida, jigar va taloq kasalliklarida, kamqonlikning barcha turlarida, teri kasalliklari, asab va yurak-tomir xastaliklari, hamda jinsiy, jismoniy va aqliy yetishmovchilikda uzoq muddat ko'llash yaxshi samara beradi. Sumalak tarkibida xlor va natriyning ko'pligini hisobga olgan holda organizmda tuz va xlor ko'payishi bilan kechadigan holatlarda, bolalarda raxit, og'ir shamollash, buyrak xastaliklarida, oshqozon shirasi kupayishi bilan kechadigan surunkali gastritda, oshqozon yarasi, o't yo'li xastaliklarida uni tavsiya etib bo'lmaydi. Qandli diabet kasalligida ham sumalakni ko'p iste'mol qilish noxushlik chaqirishi mumkin. Sumalakni bolalarga ham tavsiya etish mumkin. Tabiiy va sun'iy ovqatlanishda bo'lgan 1 yoshgacha bo'lgan bolalarga 7-8 oydan boshlab qo'shimcha ovqat sifatida kam-kamdan berish foydalidir. Ayniksa, ozgin, o'sishdan orqada qolgan, ishtahasi past bo'lgan, tez-tez kasallikka chalinuvchan bolalar har kuni kam miqdorda sumalak qabul qilishlari maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqib, sumalak to'yimli ovqat ekanligini va mikroelementlarga boyligini hisobga olgan holda mikroelementlar yetishmovchiligi bilan bog'liq kasalliklarda va boshqa bir qancha xastaliklarda tavsiya etish mumkin.

Xulosa. Sumalak tarkibi mikroelementlarga juda boy bo'lganligini inobatga olib uni haqli ravishda shifobash taom sifatida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish bilan bolalar va kattalar salomatligini saqlashda va hayot sifatini oshirishga erishish mumkin.

Insonning salomatligi avvalambor uning sog'lom turmush tarziga, so'ngra nasliy moyilligiga, ekologik holat hamda qisman tibbiy xizmatga bog'liqligi isbotlangan. Boshqacha qilib aytganda, har bir kishining sog'lig'i o'ziga bog'liq ya'ni ko'p jihatdan uning yashash sharoiti, tibbiy madaniyati, ratsional ovqatlanishi, ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli, jismoniy va aqliy yetukligi, bilimi, kasbi, oila a'zolari va bolalar uchun esa otanonaning munosabatlari va boshqa holatlari bilan belgilanadi.

So‘nggi yillarda mikroelementozlarga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda, hamda ilmiy tibbiyot va sog‘liqni saqlash amaliyotida keng miqyosda o‘rganilmokda. Odam organizmida vitaminlarning ahamiyati nafaqat tibbiyot xodimlari, balki boshqa kasbdagi mutaxassislariga ayon. Lekin, bioelementlar tarkibiga kiruvchi mikroelementlarning yoki keyingi paytda xorijiy mamlakatlarda «minerallar» - deb nom olgan kimyoviy elementlarning inson va hayvonlar organizmi taraqqiyotida tutgan o‘rni vitaminlardan kam emasligi ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda o‘z isbotini topmokda.

Mikroelementozlar muammolarini o‘rganish Samarqand tibbiyot instituti hamda O‘zR FA Yadro fizikasi institutlari hamkorligida olib borildi va bu borada samarali natijalar qo‘lga kiritildi.

Bahor faslining «Navro‘z» milliy bayrami arafasida O‘zbekistonning barcha shahar va qishloqlari udumiga ko‘ra bayram dasturxoniga sumalak, xalisa, xolvaytar, pichak va boshqa turdagi taomlar tortiladi. Tibbiyotda ushbu taomlarning mikroelement tarkibi umuman o‘rganilmaganligini hisobga olib biz tomondan 70 dan ortiq oziq-ovqat mahsulotlarida 21dan ortiq mikroelementlar miqdori aniql

Tibbiyot xodimlari va boshqa ilmiy mutaxassislar tomonidan vitaminlarning roli va ahamiyati hamda vitaminlar tanqisligi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, hayot uchun eng zarur bo‘lgan mikroelementlar yetishmovchiligiga e‘tibor yetarlicha emas edi. So‘nggi yillarda rivojlangan mamalakatlar qatori respublikamizda ham mikroelementlar tanqisligi ko‘payishi va disbalansi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar – mikroelementozlar keng miqyosda o‘rganilmoqda va olingan natijalar ilmiy va amaliy tibbiyotga taqdim etilmoqda.

Ovqat tarkibida vitaminlar va mikroelementlar yetishmovchiligi onalar salomatligi uchun va bolalar salomatligiga qamda insoniyat kelajagi uchun xatarli bo‘lib katta xavf tug‘diradi. Homilador ayollarda mikronutriyentlar yetishmovchiligi homila va chaqalok uchun «ikki tomonlama xavf» tug‘diradi. Tug‘ruk yoshidagi ayollarda defitsit holatlar homila va tug‘ruq xastaliklari rivojlanishiga olib keladi. Yo‘ldosh orqali onadan bolaga mikronutriyentlarning kam o‘tishi va bolani emizish davrida onada mavjud mikronutriyentlar yetishmovchiligi bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi va bolada ham mikroelementlar tanqisligini chaqiradi, natijada bolaning turli xil kasalliklarga moyilligi va kasallikka chalinishi ortadi, bola o‘sish va rivojlanishdan orqada qoladi. Kuzatishlar shuni ta'kidlaydiki, emizish davrida onaning

mikronutriyentlarga bo'lgan talabini qondirish va ko'krak bilan bolani uzoq muddat oziklantirishni davom ettirish o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Mikroelementlar tanqisligi iqtisodiy jihatdan ta'minlanish katta shaharlarda yashovchi bolalarda ham ko'p uchraydi, ayniqsa qishloqda yashovchi bolalarda mikronutriyentlar tanqisligi juda yuqori.

Mikroelementlar tanqisligining bolalar salomatligiga nojo'ya ta'siri kam o'rganilgan, bu esa hududiy proflaktik dastur ishlab chiqarishda qiyinchilik tug'diradi. Bu sohada olib borilgan xalqaro tekshiruvlar natijasida mikronutriyentlar tanqisligini oldini olish borasida katta yutuqlarga erishildi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti va YUNISEF tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarda onalar va bolalar o'rtasida mikronutriyentlar tanqisligi 30% dan ortiq tarqalgan davlatlarda mikronutriyentlar tanqisligini oldini olish uchun tezkor tadbirlar o'tkazish tavsiya etilgan.

So'nggi yillarda bizlar tomonimizdan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari shuni ko'rsatmoqdaki, Zarafshon vohasi maktab yoshidagi bolalar o'rtasida hayot uchun eng zarur bo'lgan mikroelementlar (temir, rux, mis, kobalt, marganets) tanqisligi 40% dan 70% gacha uchraydi. Inson salomatligi uchun eng zarur bo'lgan mahsulot bu o'simliklardir. O'simliklar tarkibidagi preparatlar mikroelementlarning tabiiy kompleksidan iborat. Mikroelementlar barcha tirik organizmlarning hayot kechirishi uchun juda muhimdir. Inson organ va to'qimalarida ularning soni 70 dan ortiq. Hamma modda almashinuv jarayoni ularning ishtirokida kechadi. Mikroelementlarning organlardagi miqdori ularning bajaradigan roli bilan belgilanadi. Organizmga makro – va mikroelementlarning kam yoki ko'p miqdorda tushishi turli xil patologik jarayonlar chaqirishi mumkin. Inson organizmida vitaminlarning ahamiyati nafaqat tibbiyot xodimlari, balki boshqa kasbdagi mutaxassislariga ayon. Lekin, bioelementlar tarkibiga kiruvchi mikroelementlarning yoki keyingi paytda hayotiy muhim bo'lgan «essentsial» mikroelementlarning inson va hayvonlar organizmi taraqqiyotida tutgan o'rni vitaminlardan kam emasligi ko'pgina ilmiy tadqiqotlarda o'z isbotini topmokda.

Sumalak tarkibida bo'lgan mikroelementlar uning shifobaxsh xususiyatlarini belgilab beruvchi omillardan biri sanaladi. Sumalak tarkibi va uning xususiyatlari haqida bizlarga ma'lum bo'lgan uch xususiyatlari quyidagilar:

1. Sumalak kam kaloriyali - 100 g da 140 kkal beradi. Taqqoslash uchun 100 g shokolad - 539 kkal, shakar - 409,2 kkal beradi. Sumalakda

mavjud bo'lgan kletchatka (tsellyuloza) organizmda uglevod va lipidlar so'rilishiga to'sqinlik qiladi, bu esa ortiqcha vazn kelib chiqishini oldini oladi. Bug'doyning eruvchi kletchatkasi oshqozon-ichak yo'lida mikroflora balansini ta'minlaydi va immunoglobulinlar sintezini oshiradi, shu orqali immunitetni mustahkamlaydi, kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi.

2. Sumalak organizm uchun zarur bo'lgan kaltsiy, magniy, temir, fosfor va natriy tutadi. Qo'p qaynatish natijasida vitaminlar miqdori juda kamayib ketadi, lekin bug'doy ko'k o'simtasi tarkibida alohida fermentlar mavjudki, ular organizmda ovqat mahsulotlarini parchalanishi va singishini ta'minlaydi. Asab tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, yurak va tomirlar faoliyatini yaxshilaydi.

3. Sumalak kayfiyatni ko'taradi. Ayniqsa sumalakni tayyorlashda siz ishtirok etsangiz, inoqlikda, hamjihatlikda ko'pchilik bilan ashula va raqslar jo'rligida tayyorlangan sumalak insonning ruhiyatini ancha muddatga ko'taradi. Ko'pchilik fikricha, sumalak tarkibida uglevod, oqsil va yog'lar borligi uchun to'yimli va shifoli deb tan olinadi va tansiq taom sifatida qabul qilinadi. Ushbu taomning shifoligini o'rganish maqsadida bizlar tomondan ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi va sumalak tarkibida mikroelementlar miqdorini aniqlash orqali uning shifoligini aniqlashga va shu asosda tavsiyalar ishlab chiqishga hamda maqsadli qo'llanilishi mumkinligini isbotlashga harakat qildik.

Adabiyotlardan sumalak to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik mualliflar sumalakni tayyorlash usullarini, milliy taom sifatida qadrlanishi, bayramlar bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni yozganlar. Ayrim manbalarda sumalak to'yimli va vitamanga boy taom sifatida tavsiya etiladi. Onalar va bolalar o'rtasida temir, yod, mis, rux va boshqa elementlar tanqisligi bilan bog'liq kasalliklar ko'p uchrashini hisobga oladigan bo'lsak, ularni oldini olish uchun oziq-ovqat tarkibida mikroelementlarni aniqlash naqadar ahamiyatga ega ekanligi o'z-o'zidan ma'lum. Uning shifoligi tabiiy shirinlikda va mikroelementlar miqdori bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bizlar tomondan sumalak tarkibida mikroelementlar miqdorini urganish orqali olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, sumalak tarkibi nafaqat to'yimli moddalar, balki organizm uchun eng zarur bo'lgan minerallarga juda boy ekanligi ma'lum bo'ldi. Quyida uning mikroelement tarkibi keltirildi va ularni maqsadli qo'llash usullari bayon qilindi. Sumalak bug'doy maysasidan un qo'shib uzoq muddatda pishirilib tayyorlanadigan bahor milliy taomi bo'lib u aksariyat viloyatlarda bir xil

usulda tayyorlanadi, ayrim tog‘li qishloqlarda esa sumalak noni tayyorlanadi va bu taomning tarkibida nafaqat to‘yimli oqsil, uglevod, yog‘lar balki minerallar va vitaminlar ham mavjud. Sumalakni to‘yimli ozuqa bo‘lganligi uchun ham u uzoq muddatda hazm bo‘ladi, ayniqsa yog‘li ovqatlar bilan iste‘mol qilinganda, shu sababli sumalakni nonushta paytida shirinliklar bilan tanovul qilish maqsadga muvofiqdir. Yog‘li va hayvon mahsulotlari bilan sumalakni tanovul qilish organizmni zo‘riqtirishi mumkin. Umuman sumalakni o‘zini non mahsulotlari bilan iste‘mol qilish foydalidir.

Sumalakda makro – va mikroelementlar miqdori quyidagicha aniqlandi: xlor- 4950 mg/kg, natriy – 860 mg/kg dan yuqori. Ko‘rinib turibdiki, sumalakni tayyorlashda tuz qo‘shilmasada unda xlor va natriy elementi ko‘p. Sumalakda xlor elementi juda ko‘p miqdorda bo‘lganligi bois, uni oshqozon shirasi me‘yordan ko‘p bo‘lgan kishilarga va oshqozon yarasi bo‘lgan bemorlarga tavsiya etib bo‘lmaydi, agarda bunday kishilar sumalakni yoqtirsalar, unda sumalakni sariyog bilan qo‘shib iste‘mol qilishlari mumkin. Makroelementlardan sumalakda kaltsiy-1185 mg/kg ni tashkil etadi, bu esa kaltsiyga ehtiyoji oshgan kishilar va bolalar uchun foydalidir, bular: o‘shish davridagi bolalar va o‘smirlar, homilador va emizuvchi ayollar, osteoxondrozi bo‘lgan bemorlardir. Organizm o‘shish va rivojlanishi uchun eng zarur (essentsial) mikroelementlar miqdori (mkg/g yoki mg/kg larda) sumalakda quyidagicha: temir- 63 mg/kg; mis- 36 mg/kg, rux-31 mg/kg, marganets -15 mg/kg, brom -2 mg/kg, selen - 0,27 mg/kg, xrom- 0,023 mg/kg, skandiy-0,023 mg/kg, rubidiy-1,3 mg/kg, kobal’t-0,05 mg/kg. Ko‘rinib turibdiki, sumalak tarkibi minerallarga boy, ayniqsa sumalakda temir mis, rux, marganets, selen va kobal’t miqdori yuqori. Sumalakda organizm uchun eng zarur mikroelementlardan temir, rux, marganets, kobal’t, selen miqdori non mahsulotlarida mavjud mikroelementlarga nisbatan 1,5-3 barobar ko‘pdir. Ayniqsa rux miqdorining ko‘pligi immunitetni mustahkamlaydi va organizmni kasallikka qarshi kurashish qobiliyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Brom elementi asabni tinchlantirishda yaxshi samara beradi. Shundan kelib chiqib, sumalak to‘yimli ovqat sifatida va mikroelementlarga boyligini hisobga olgan holda mikroelementlar yetishmovchiligi bilan bog‘liq kasalliklarda, darmonsizlikda va boshqa bir qancha xastaliklarda tavsiya etish mumkin. Shunga amal qilish lozimki, sumalak to‘yimli ovqat bo‘lganligi uchun faqat o‘zini yoki shirinliklar, sutli mahsulotlar bilan birga iste‘mol kilgan ma‘qul, go‘shqli va yog‘li ovqatlar bilan tanovul qilish oshqozon faoliyatiga nojuya ta‘sir

ko'rsatishi mumkin. Qon ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi mikroelementlardan mis, marganets, temir, rux, kobalt miqdori sumalakda ko'pligi sababli uni barcha turdagi kamqonliklarda va qon kasalliklarida tavsiya etish uchun asos bo'ladi. Shu qatorda sumalakni surunkali oshqozon kasalliklarining oshqozon shirasi kamayishi bilan kechadigan turida, jigar va taloq kasalliklarida, kamqonlikning barcha turlarida, teri kasalliklari, asab va yurak-tomir xastaliklari, hamda jinsiy, jismoniy va aqliy yetishmovchilikda uzoq muddat ko'llash yaxshi samara beradi. Sumalak tarkibida xlor va natriyning ko'pligini hisobga olgan holda organizmda tuz va xlor ko'payishi bilan kechadigan holatlarda, bolalarda raxit, og'ir shamollash, buyrak xastaliklarida, oshqozon shirasi kupayishi bilan kechadigan surunkali gastritda, oshqozon yarasi, o't yo'li xastaliklarida uni tavsiya etib bo'lmaydi. Qandli diabet kasalligida ham sumalakni ko'p iste'mol qilish noxushlik chaqirishi mumkin. Sumalakni bolalarga ham tavsiya etish mumkin. Tabiiy va sun'iy ovqatlanishda bo'lgan 1 yoshgacha bo'lgan bolalarga 7-8 oydan boshlab qo'shimcha ovqat sifatida kam-kamdan berish foydalidir. Ayniksa, ozgin, o'sishdan orqada qolgan, ishtahasi past bo'lgan, tez-tez kasallikka chalinuvchan bolalar har kuni kam mikdorda sumalak qabul qilishlari maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqib, sumalak to'yimli ovqat ekanligini va mikroelementlarga boyligini hisobga olgan holda mikroelementlar yetishmovchiligi bilan bog'liq kasalliklarda va boshqa bir qancha xastaliklarda tavsiya etish mumkin.

Demak, sumalak haqiqatda shifoli taom ekanligini biz yana bir bor ilmiy jihatdan isbotlashga harakat qildik. Faqat bir muammo mavjud, ya'ni sumalak faqat navro'z arafasida bahorda tayyorlanadigan milliy taom. Uni yilning boshqa fasllarida ham tayyorlash imkoniyati bo'lishiga aminman, chunki bug'doy maysasini har qanday issiq xonalarda o'stirish mumkin, yozda sumalak tayyorlansa uni asrash muammosi tug'ilishi aniq, extiyoj bo'lganda uni ayniqsa kuz va qish faslida tayyorlash ham mumkin. Demak, milliy taomlar tarkibida mikroelementlar miqdorini aniqlash ko'pgina kasalliklarni davolash bilan birgalikda ularni oldini olishda ham katta imkoniyatlar yaratadi. Milliy taomlarning shifoligi asosan uning tarkibida mavjud bo'lgan mikroelementlar bilan, oziqligi esa aminokislotalar, yog'lar va uglevodlarga bog'liq. Faqatgina buning uchun ular tarkibida mavjud mikroelementlar miqdorini hisobga olish va uni maqsadli ravishda tavsiya etish kutilgan natijalar berishi mumkin. Xullas, sumalak – bahorning darmondoriga boy, shifoli, hayotbaxsh hamda tansiq taomidir. U salomatligimizni tiklaydi, qonimizni tozalab, jismimizni

tetiklashtiradi, kuch-quvvatimizni oshiradi. Sumalak o'ta to'yimli va mazali bo'lgani uchungina emas, shifobaxsh fazilatlariga boyligidan ham unga hurmat, e'tiqod yuksakdir. Bizlar sumalakni haqiqatda shifobaxsh taom ekanligini biz yana bir bor ilmiy jihatdan isbotlashga harakat qildik. Faqat bir muammo mavjud, ya'ni sumalak faqat navro'z arafasida bahorda tayyorlanadigan milliy taom. Uni yilning boshqa fasllarida ham tayyorlash imkoniyati bo'lishiga aminman, chunki bug'doy maysasini har qanday issiq xonalarda o'stirish mumkin, yozda sumalak tayyorlansa uni asrash muammosi tug'ilishi anik, ehtiyoj bo'lganda uni ayniqsa kuz va qish faslida tayyorlash ham mumkin. Sumalakni uzoq muddat salqin joyda saqlab iste'mol qilsa bo'ladi, u buzilmaydi, faqat uni issiq joyda saqlamaslik ma'qul.

Sumalakli pechen'ye haqida

Bizlar tomondan sumalak tarkibida mikroelementlar miqdorini urganish orqali olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, sumalak tarkibi nafaqat to'yimli moddalar, balki organizm uchun eng zarur bo'lgan minerallarga juda boy ekanligi ma'lum bo'ldi. Quyida uning mikroelement tarkibi keltirildi va ularni maqsadli qo'llash usullari bayon qilindi. Sumalak bug'doy maysasidan un qo'shib uzoq muddatda pishirilib tayyorlanadigan bahor milliy taomi bo'lib u aksariyat viloyatlarda bir xil usulda tayyorlanadi, ayrim tog'li qishloqlarda esa sumalak noni tayyorlanadi va bu taomning tarkibida nafaqat to'yimli oqsil, uglevod, yog'lar balki minerallar va vitaminlar ham mavjud. Sumalakni to'yimli ozuqa bo'lganligi uchun ham u uzoq muddatda hazm bo'ladi, ayniqsa yog'li ovqatlar bilan iste'mol qilinganda, shu sababli sumalakni nonushta paytida shirinliklar bilan tanovul qilish maqsadga muvofiqdir. Yog'li va hayvon mahsulotlari bilan sumalakni tanovul qilish organizmni zo'riqtirishi mumkin. Umuman sumalakni o'zini non mahsulotlari bilan iste'mol qilish foydalidir.

Sumalakda makro – va mikroelementlar miqdori quyidagicha aniqlandi: xlor- 4950 mg/kg, natriy – 860 mg/kg dan yuqori. Ko'rinib turibdiki, sumalakni tayyorlashda tuz qo'shilmasada unda xlor va natriy elementi ko'p. Sumalakda xlor elementi juda ko'p miqdorda bo'lganligi bois, uni oshqozon shirasi me'yordan ko'p bo'lgan kishilarga va oshqozon yarasi bo'lgan bemorlarga tavsiya etib bo'lmaydi, agarda bunday kishilar sumalakni yoqtirsalar, unda sumalakni sariyog bilan qo'shib iste'mol qilishlari mumkin. Makroelementlardan sumalakda kal'tsiy-1185 mg/kg ni tashkil etadi, bu esa kal'tsiyga ehtiyoji oshgan kishilar va bolalar uchun foydalidir, bular: o'sish davridagi bolalar va o'smirlar, homilador va

emizuvchi ayollar, osteoxondrozi bo'lgan bemorlardir. Organizm o'sish va rivojlanishi uchun eng zarur (essentsial) mikroelementlar miqdori (mkg/g yoki mg/kg larda) sumalakda quyidagicha: temir- 63 mg/kg; mis- 36 mg/kg, rux-31 mg/kg, marganets -15 mg/kg, brom -2 mg/kg, selen - 0,27 mg/kg, xrom- 0,023 mg/kg, skandiy-0,023 mg/kg, rubidiy-1,3 mg/kg, kobal't-0,05 mg/kg. Ko'rinib turibdiki, sumalak tarkibi minerallarga boy, ayniqsa sumalakda temir mis, rux, marganets, selen va kobal't miqdori yuqori. Sumalakda organizm uchun eng zarur mikroelementlardan temir, rux, marganets, kobal't, selen miqdori non mahsulotlarida mavjud mikroelementlarga nisbatan 1,5-3 barobar ko'pdir. Ayniqsa rux miqdorining ko'pligi immunitetni mustahkamlaydi va organizmni kasallikka qarshi kurashish qobiliyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Brom elementi asabni tinchlantirishda yaxshi samara beradi. Shundan kelib chiqib, sumalak to'yimli ovqat sifatida va mikroelementlarga boyligini hisobga olgan holda mikroelementlar yetishmovchiligi bilan bog'liq kasalliklarda, darmonsizlikda va boshqa bir qancha xastaliklarda tavsiya etish mumkin. Shunga amal qilish lozimki, sumalak to'yimli ovqat bo'lganligi uchun faqat o'zini yoki shirinliklar, sutli mahsulotlar bilan birga iste'mol kilgan ma'qul, go'shtli va yog'li ovqatlar bilan tanovul qilish oshqozon faoliyatiga nojuya ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qon ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi mikroelementlardan mis, marganets, temir, rux, kobal't miqdori sumalakda ko'pligi sababli uni barcha turdagi kamqonliklarda va qon kasalliklarida tavsiya etish uchun asos bo'ladi. Shu qatorda sumalakni surunkali oshqozon kasalliklarining oshqozon shirasi kamayishi bilan kechadigan turida, jigar va taloq kasalliklarida, kamqonlikning barcha turlarida, teri kasalliklari, asab va yurak-tomir xastaliklari, hamda jinsiy, jismoniy va aqliy yetishmovchilikda uzoq muddat ko'llash yaxshi samara beradi. Sumalak tarkibida xlor va natriyning ko'pligini hisobga olgan holda organizmda tuz va xlor ko'payishi bilan kechadigan holatlarda, bolalarda raxit, og'ir shamollash, buyrak xastaliklarida, oshqozon shirasi kupayishi bilan kechadigan surunkali gastritda, oshqozon yarasi, o't yo'li xastaliklarida uni tavsiya etib bo'lmaydi. Qandli diabet kasalligida ham sumalakni ko'p iste'mol qilish noxushlik chaqirishi mumkin. Sumalakni bolalarga ham tavsiya etish mumkin. Tabiiy va sun'iy ovqatlanishda bo'lgan 1 yoshgacha bo'lgan bolalarga 7-8 oydan boshlab qo'shimcha ovqat sifatida kam-kamdan berish foydalidir. Ayniksa, ozgin, o'sishdan orqada qolgan, ishtahasi past bo'lgan, tez-tez kasallikka chalinuvchan bolalar har kuni kam mikdorda sumalak qabul qilishlari maqsadga

muvofiq. Shundan kelib chiqib, sumalak to'yimli ovqat ekanligini va mikroelementlarga boyligini hisobga olgan holda mikroelementlar yetishmovchiligi bilan bog'liq kasalliklarda va boshqa bir qancha xastaliklarda tavsiya etish mumkin.

Demak, sumalak haqiqatda shifoli taom ekanligini biz yana bir bor ilmiy jihatdan isbotlashga harakat qildik. Faqat bir muammo mavjud, ya'ni sumalak faqat navro'z arafasida bahorda tayyorlanadigan milliy taom. Uni yilning boshqa fasllarida ham tayyorlash imkoniyati bo'lishiga aminman, chunki bug'doy maysasini har qanday issiq xonalarda o'stirish mumkin, yozda sumalak tayyorlansa uni asrash muammosi tug'ilishi aniq, ehtiyoj bo'lganda uni ayniqsa kuz va qish faslida tayyorlash ham mumkin. Demak, milliy taomlar tarkibida mikroelementlar miqdorini aniqlash ko'pgina kasalliklarni davolash bilan birgalikda ularni oldini olishda ham katta imkoniyatlar yaratadi. Milliy taomlarning shifoligi asosan uning tarkibida mavjud bo'lgan mikroelementlar bilan, oziqligi esa aminokislotalar, yog'lar va uglevodlarga bog'liq. Faqatgina buning uchun ular tarkibida mavjud mikroelementlar miqdorini hisobga olish va uni maqsadli ravishda tavsiya etish kutilgan natijalar berishi mumkin. Xullas, sumalak – bahorning darmondoriga boy, shifoli, hayotbaxsh hamda tansiq taomidir. U salomatligimizni tiklaydi, qonimizni tozalab, jismimizni tetiklashtiradi, kuch-quvvatimizni oshiradi. Sumalak o'ta to'yimli va mazali bo'lgani uchungina emas, shifobaxsh fazilatlariga boyligidan ham unga hurmat, e'tiqod yuksakdir. Bizlar sumalakni haqiqatda shifobaxsh taom ekanligini biz yana bir bor ilmiy jihatdan isbotlashga harakat qildik. Faqat bir muammo mavjud, ya'ni sumalak faqat navro'z arafasida bahorda tayyorlanadigan milliy taom. Uni yilning boshqa fasllarida ham tayyorlash imkoniyati bo'lishiga aminman, chunki bug'doy maysasini har qanday issiq xonalarda o'stirish mumkin, yozda sumalak tayyorlansa uni asrash muammosi tug'ilishi anik, ehtiyoj bo'lganda uni ayniqsa kuz va qish faslida tayyorlash ham mumkin. Sumalakni uzoq muddat salqin joyda saqlab iste'mol qilsa bo'ladi, u buzilmaydi, faqat uni issiq joyda saqlamaslik ma'qul.

Aholini sumalakka bo'lgan talabini yil davomida qondirish, hamda bolalar qo'shimcha ovqatiga suniy pechene o'rniga bizlar tomondan tabiiy bo'lgan sumalakli pechene ishlab chiqarish texnologiyasi yaratildi, sumalakli pecheneni ta'mini yaxshilash maqsadida tabiiy shirinliklardan (turli xil meva va sabzavot shinnisi) qo'shish orkali to'yimli, nutriyentlarga, makro- va mikroelementlarga boy shifoli sumalakli-shinnili pechene ishlab chiqarildi. Sumalakli-shinnili pechene tarkibi

to'liq o'rganib chiqildi hamda Samarqand viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va axoli salomatligi laboratoriyasida bakteriologik, radionuklid va toksikologik taxlil qilinib, iste'molga yaroqli deb topildi. Hozirda ushbu mahsulotga "O'zstandart" instituti tomonidan tashkilot standarti va sertifikatlar olish uchun tashkiliy ishlar olib borilmoqda. Biz aminmizki, kelgusida sumalakli pechene sanoat miqyosida ishlab chiqarilishi nafaqat aholini va ayniqsa bolalarni salomatligini tiklashda, oziq-ovqat muammosini yetishda ahamiyatli, balki davlatimiz eksport salohiyatini oshirishga ham katta hissa qo'shishi tabiiy.

□ Bizlar tomondan sumalakni yil davomida onalar va bolalar tomonidan iste'mol qilishlarini yo'lga qo'yish maqsadida bir qator tavsiyalarimiz bor: Sumalakli pechene, sumalakli nonlarni tayyorlash va uni quritish (suxariklar tayyorlash) orqali uzoq saqlash.

□ Sumalak pechenelari tayyorlashni yo'lga qo'yish bilan bolalarni sifatli, to'yimli, tabiiy va shifoli ovqatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

□ Erta yoshdagi bolalarga qo'shimcha ovqat sifatida sun'iy shakardan tayyorlangan shirinliklar va ovqatlar o'rnida sumalakni tavsiya etish;

□ Bir yoshgacha bolalarda mahalliy xalqimiz tomonidan keng miqyosda qo'llanilib kelayotgan shakarli pechene ko'pgina allergik kasalliklarga, hazm a'zolari funksional buzilishlariga va immun tanqislikka olib kelayotganligini inobatga olib uni o'rniga sumalakli pechene tavsiya qilish;

□ Sumalakni sanoat miqyosida buzilmaydigan holda konservatsiya qilish va iste'molga chiqarishni yo'lga qo'yish.

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlar sumalak tarkibi mikroelementlarga juda boy bo'lganligini inobatga olib uni haqli ravishda shifobash taom sifatida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga asosimiz bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулхаков И.У., Кароматов И.Д. Виноградник, виноград, изюм - применение в медицине (обзор литературы). Современная наука - обществу XXI века. Центр научного знания "Логос" ; Под редакцией И.Н. Титаренко. - Том. 2016. Узбекистан. БухТИ. Ставрополь. С.35-76.
2. Авцын А.П., Жаворонков Ф.Ф., Риш М.А., Строчкова Л.С. Микроэлементозы человека. Москва. 1991.
3. Бгатов А.В. Биогенная классификация химических элементов. //Философия науки. 1999. №2(6). стр.8
Агаджанян Н.А., Скальный А.В., Детков В.Ю. Элементный портрет человека: заболеваемость, демография и проблема управления здоровьем нации. Экология человека. 2013. № 11. С. 3–12.
4. Ахрарова Н. А. Нарушение микроэлементного гомеостаза у новорожденных от матерей с анемией: научное издание / Н. А. Ахрарова, М. Х. Каттаходжаева // Новости дерматовенерологии и репродуктивного здоровья. - Ташкент, 2013. - N3-АН19013-А. - С. 132-133
5. Арзикулов А.Ш. Микроэлементный состав в сыворотке крови у доношенных новорожденных с перинатальной постгипоксической энцефалопатией. //Журнал гепато-гастроэнтерологических исследований. – №SI | 2022. – С. 58-60.
6. Бахрамов С.М., Бугланов А.А., Бахрамов Б.С., Убайдуллаева З.И., Махмудова Д.С. Современные аспекты обмена железа в организме. Ташкент. 2018. 218 с.
7. Бахрамов С.М., Аляви А.П., Иноятов Х.П. Камконликлар. Тошкент. 2016. 67 б/
8. Балашова, Е.А. Современные подходы к диагностике железодефицитной анемии у детей/ Е.А. Балашова, Л.И. Мазур// Российский вестник перинатологии и педиатрии. – 2015. – № 4. – С. 31–36.
9. Бобомуратов Т.А., Самадов А.А., Даниелова Е.А. Состояние микроэлементного статуса у детей с нарушениями желудочнокишечного тракта при нефротическом синдроме. Вестник ТМА, 2022. Стр.4-8.
10. Бобомурадов Н.Л., Косымбетова А. Б., Ниетуллаева Р. П., Орынғалиева Н. Д., Турения зова М. К. К вопросу оценки микроэлементного статуса и взаимосвязь его дисбаланса с развитием заболеваний. "Теория и практика современной науки" №6(36) 2018. Стр. 105-108.
11. ВОЗ. Кормление и питание грудных детей и детей раннего возраста.

- //Методические рекомендации для Европейского региона ВОЗ с особым акцентом на республики бывшего Советского Союза. //ВОЗ. Европейская серия - 2001. Дания. – 369 с.
12. Гизингер О. А., Силкина Т. А., Пешикова М. В. Актуальные вопросы определения микроэлементов: возможности современной лаборатории. Педиатрический вестник Южного Урала № 1, 2019. Стр.52-57.
 13. Данилова Е.А., Кист А.А., Осинская Н.С., Хусниддинова С.Х., Михольская И.Н. Биоэкологический мониторинг Ташкента и Ташкентской области. Материалы Междунар. конф. «Химия и экология – 2015». Уфа: Изд-во УГНТУ, 2015. С. 264–269.
 14. Давыдова И.В. Макро- и микроэлементы в грудном молоке //Автореф. Дис. канд.мед.наук.- М.- 1992.- 23 с.
 15. Дубовая А.В. Особенности биоэлементного и витаминного статуса детей с нарушениями ритма сердца, оптимизация их лечения и реабилитации. Автореф. Дисс. д.м.н., Донецк.2018. 286 с.
 16. Жиемуратова Г.К. Микроэлементозы и заболеваемость детей проживающих в регионе Приаралья. Medicine: theory and practice том 4 спецвыпуск 2019. Стр.205-208.
 17. Ерпулева Ю.В., Корсунский А.А. Оценка статуса питания ребенка в практике врача-педиатра. М. 2016. 80 с.
 18. Игамбердиева П.К., Усманов Р.Д., Данилова Е.А. Исследование макро- и микроэлементного состава лекарственных растений южной Ферганы и перспективы применения их при лечении заболеваний. Фармацевтический журнал. 2015. № 3. С. 7–11.
 19. Иноятова Ф.И., Икрамова Н.А., Иногамова Г.З., Кадырходжаева Х.М., Абдуллаева Ф.Г., Валиева Н.К., Ахмедова А.Х. Информативность маркеров метаболизма железа в дифференциальной диагностике анемии воспаления у детей с хронической HBV-инфекцией. *Журнал инфектологии*. 2020; 12(5): 40-47. <https://doi.org/10.22625/2072-6732-2020-12-5-40-47>
 20. Ингерлейб М., Самойленко М. [Целебные соки](https://books.google.com). - 2022 - books.google.com
 21. Исследование по питанию в Узбекистане отчет.Ташкент. ЮНИСЕФ 2019.
 22. Кувшинников В. А. [и др.] Распространённость и основные причины железодефицитных состояний у детей в Республике Беларусь.// Мед. журн. - 2021. - № 1. - С. 75-78. - Библиогр.: с. 78 (11 назв.).
 23. Кулиев О.А. Распространенность анемии у детей, факторы риска и оптимизация лечебно-профилактической помощи в условиях первичного звена здравоохранения (на примере Джиззакской области). Автореф. дисс. д.ф. (Phd) по медицинским наукам.2019.С. 23

24. Кист А.А., Данилова Е.А., Осинская Н.С. Краткое сообщение достижения лаборатории активационного анализа института ядерной физики Академии наук Республики Узбекистан. Микроэлементы в медицине. 2016. 17(1): 45–50
25. Кист А.А. Феноменология биогеохимии и бионеорганической химии.. Ташкент. 1987.
26. Кист А.А., Данилова Е.А., Осинская Н.С. Краткое сообщение достижения лаборатории активационного анализа института ядерной физики академии наук республики узбекистан. Микроэлементы в медицине. 2016. 17(1): 45–50.
27. Козарезова А. М. Анемия недоношенных: современный взгляд на проблему и пути решения./А.М. Козарезова, Н.Н. Климкович, И.С. Валентюкевич.// Мед. журн. - 2021. - № 1. - С. 21-30. - Библиогр.: с. 27-30 (40 назв.).
28. Кондратьева Е.И., Барабаш Н.А., Протасова Н.В. и др. Влияние состояния здоровья кормящей женщины на иммунологические факторы грудного молока //Вопр. детской диетологии. 2007. - № 5. - С. 30-33.
29. Коденцова В.М. Вржесинская О.А. Рисник Д.В. Анализ отечественного и международного опыта использования обогащенных микроэлементами пищевых продуктов и йодирования соли. Микроэлементы в медицине. 2015 16(4): 3–20.
30. Лашина Е.Л., Коляскина М.М., Лягутина А.П. Клинический опыт применения специализированных пищевых продуктов в составе диетического питания при болезнях желудочно кишечного тракта. Материалы двадцать пятой Объединенной Российской Гастроэнтерологической Недели. 7-9 октября 2019 г. Москва. С.70.
31. Песоцкая, Л.А. и Палец, В.А. и Гаврилюк, А.И. (2021) *Патогенез анемии при гипотиреозе*. In: World science: problems, prospects and innovations. Abstracts of the 7th International scientific and practical conference. Perfect Publishing, Toronto, Canada, С. 659-665. ISBN 978-1-4879-3793-5
32. Попова В.А., Кожин А.А., Пузикова О.З., Друккер Н.А., Дурницына О.А. Микроэлементный дисбаланс как фактор, потенцирующий задержку полового созревания у мальчиков-подростков с конституциональноэкзогенным ожирением. Школьная и подростковая медицина, 2018. Стр.223-227.
33. Мельникова О.Ф, Inson salomatligini saqlashda ozuqalarning o'rnini Science Time. 2016. № 9 (33). С. 168-172.
34. Парр Р.М.. Микроэлементы в женском молоке. БЮЛЛЕТЕНЬ МАГАТЭ. ТОМ 25, № 2.

35. Расулов С.К., Бахрамов С.М., Саломов И.Т., Клиническая классификация микроэлементозов у детей. Методические рекомендации Ташкент.2005. 1,5 п.л.
36. Расулов Сайдулло. Узум махсулотларининг шифолиги(ампелотерапия) ва микронутриентлар. Тошкент. 2013. 136 б.
37. Расулов С.К., Бобомурадов Т.А. Джураева З.А., Кулиев О.А. Частота встречаемости дефицита микронутриента - железа в детской популяции Зарафшанской долины. Материалы республиканской научно-практической конференции с участием международных ученых. “Актуальные проблемы медицины, а также принципы и перспективы полноценного питания детей” Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии. Ургенч. 2020. С.154-156/
38. Расулов С.К., Бобомуратов Т.А., Джураева З.А., Турамкулов Ш.Н. Частота железодефицитных состояний в популяции детей дошкольного возраста в биогеохимической зоне южного приаралья на примере Хорезмского вилоята. Халқаро илмий-амалий видео конференцияси АБУ АЛИ ИБН СИНО: Инсон саломатлиги ва экология 11 ноябр 2020 йил. Урганч. 2020. 152-153 б.
- 39.Расулов С.К., Бобомуратов Т.А., Джураева З.А.. Медико-социальная охрана материнства и детства с учетом дефицита микронутриентов: нутриционная поддержка и профилактика. Lamdert academic Publishing 2022. Republic of Moldova Turope/ www.morebooks.shop 198 с.
- 40.Расулов С.Қ.Тўрамкулов Ш.Н.Узумнинг шифобахш хусусиятларининг макро-микроэлементлар таркибига боғлиқлиги. Озиқ-овқат хавфсизлиги; миллий ва глобал омиллар.Халқаро илмий-амалий конференция. Самарқанд.2019 й.103 б.
41. Расулов С.К., Ипполитова Л.И., Рустамова Х.Х., Ахмедова Г.А. Микронутриентная недостаточность в системе “Мать-ребенок”. Ранняя диагностика и перспективы профилактики национальными фармаконутриентными продуктами. Журнал гепато-гастроэнтерологических исследований.2022.спец.выпуск.том 2. С.108-113.
42. Rasulov S.K., Rustamova Kh.Kh., Narmetova S.Ya. Clinical and Pharmacological Importance of Micronutrients for Pregnant Women and Newborns. International journal of Integrated Education. Volume 5, Issue 12| Dec 2022 | 278-280.
43. Супрун С. В., Козлов В. К., Аристова Г. А., Яхина О. А. / Динамика состояния здоровья беременных женщин и детей, проживающих в условиях микроэлементного дисбаланса // Дальневосточный медицинский журнал.- 2019.- № 4. - С. 5 - 7.

44. Санникова Н.Е., Стенникова О.В. Современные возможности диетотерапии для профилактики и коррекции дефицита кальция у детей раннего возраста//Вопросы современной педиатрии.-2007.- Т.5, № 1.-С.29-35.
45. Смирнова Т.Л., Герасимова Л.И. Физиологическое значение железа, йода, селена, хрома, никеля, кадмия и кальция в биологических процессах у женщин в различные возрастные периоды жизни (обзор литературы). Здравоохранение Чувашии. 2018; 4: 41?55.
46. Степакова Н.Н. Разработка технологии и формирование качества сокосодержащих напитков на основе растительного сырья дальнего востока Дисс. к.т.н. Кемерово. 2021.
47. Хорошилов И.Е. Клиническое питание и нутриционная поддержка. Санкт-Петербург 2018. Щеплягина Л.А., Маслова О.И., Римарчук Г.В., Козлова Л.В., Круглова И.В., Моисеева Т.Ю. Витамины и минералы для роста и развития детей // Consilium Medicum, приложение. 2009. - № 1. - С. 68-71
48. Хорошилов И.Е., Вершинин Г.П.. Роль и место нутриционной поддержки в реабилитации больных и спортивной медицинеСборник трудов третьего национального конгресса с международным участием здоровые дети — будущее страны. Нучно-практический журнал для врачей спец выпуск. Санкт-Петербург, 2019 г, том 4, С.491.
49. Чумбадзе Т.Р. Влияние рациона питания кормящей женщины на микроэлементный состав грудного молока и метаболизм микроэлементов у недоношенных детей: Автореф. дис. . канд. мед. наук. Москва, 2009. - 26 с.
50. Шарипов Р.Х. Рахит. Современный взгляд на профилактику и лечение. Учебно-методическое пособие. Ташкент. 2016. 52 с.
51. JSSV. Chaqaloqlar va yosh bolalarning ovqatlanishi va oziqlanishi. // Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining sobiq Sovet Ittifoqi respublikalariga alohida e'tibor qaratadigan Evropa mintaqasi uchun ko'rsatmalar. //JSSV. Evropa seriyasi - 2001. Daniya. - 369 p.
52. Saydullo Rasulov. Uzum maxsulotlarining shifoligi (ampeloterapiya) VA mikroelement. Toshkent. 2013.136 b.
53. Sharipov R.X., Rasulova N.A. Raxit rivojlanish xavfi omillarining bolalardagi qon zardobidagi 25 (OH) D darajasi bilan o'zaro bog'liqligi. "Shifokor byulleteni" jurnali 1-son Samarqand 2017 yil 40-43 betlar
54. Gromova O.A., Torshin I.YU., Tetruashvili N.K., Tapil'skaya N.I. [A systematic analysis of molybdenum effects: health of a pregnant woman and a foetus/baby] Voprosy ginekologii, akusherstva i perinatologii. 2019; 18(4): 83-94; doi: 10.20953/1726-1678- 2019-4-83-94 (in Russ.).

55. Guo Y., Yu P., Zhu J., Yang S., Yu J., Deng Y., Li N., Liu Z. High maternal selenium levels are associated with increased risk of congenital heart defects in the offspring. *Prenat. Diagn.* 2019; 39(12): 1107-1114. doi: 10.1002/pd.5551.
56. Smith ER, Shankar AH, Wu LS, Aboud S, Adu-Afarwuah S, Ali H, et al. Modifiers of the effect of maternal multiple micronutrient supplementation on stillbirth, birth outcomes, and infant mortality: a meta-analysis of individual patient data from 17 randomised trials in low-income and middle-income countries. *Lancet Global Health* 2017; 5(11): e1090-e1100.
57. Nazeri P, Dalili H, Mehrabi Y, et al. Breast Milk Iodine Concentration Rather than Maternal Urinary Iodine Is a Reliable Indicator for Monitoring Iodine Status of Breastfed Neonates. *Biol Trace Elem Res.* 2018;185(1):71-7. DOI:10.1007/s12011-018-1246-9.
58. Persson LA, Arifeen S, Ashfaful K, Rahman A, Ekstrom EC. Effects of early prenatal food supplementation and multiple micronutrients on under-five survival, linear growth, metabolic markers and blood pressure up to 10 years of age. The MINIMat trial in rural Bangladesh. *FASEB Journal* 2017; 31(1 Suppl): Abstract Number: 786.35.
59. Chandyo RK, Henjum S, Ulak M, Thome-Lyman AL, Ulvik RJ, Shrestha PS, Locks L, Fawzi W, Strand TA. The prevalence of anemia and iron deficiency is more common in breastfed infants than their mothers in Bhaktapur, Nepal. *Eur J Clin Nutr.* 2016 Apr; 70(4): 456-62. doi:10.1038/ejcn. 2015.199. Epub 2015 Dec 2.
60. Gish R.G. Chronic hepatitis B: Virology, natural history, current management and a glimpse at future opportunities. / R.G. Gish [et al.] // *Antiviral Res* 2015;121:47-58.

Муаллиф:

Расулов Сайдулло Курбанович – Самарқанд Давлат тиббиёт университети ва СамДТУ хузуридаги Л.М.Исаев номидаги МВЮПКИТИ ходими, т.ф.д., ХФСА мухбир аъзоси, ХЁИ аъзоси, Турон ФА ҳақиқий аъзоси.